

SAN'ATSHUNOSLIKNING DOLZARB MASALALARI



- ❖ O'zDSMI huzuridagi Tarmoq markazi
- ❖ "San'atshunoslik"(turlari bo'yicha) yo'nalishi
- ❖ Professor Tojiboyeva Oltinoy Qosimovna

**Modulning o‘quv-uslubiy majmuasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim
vazirligining 2020 yil 7 dekabrda 648-sonli buyrug‘i bilan
tasdiqlangan
o‘quv dasturi va o‘quv rejasiga muvofiq ishlab chiqilgan.**

Tuzuvchi: O‘zDSMI “Ovoz rejissyorligi va operatorlik mahorati” kafedrasida professori, san’atshunoslik fanlari doktori
Tojiboyeva Oltinoy Qosimovna

Taqrizchilar: Manas nomidagi Qirg‘iz-Turk universiteti professori,
CH.Aytmatov nomidagi Xalqaro Akademiya akademigi
Kulmambetov Janish Osmanovich

O‘zDSMI “Televideniye rejissyorligi” kafedrasida mudiri,
san.f.n., dotsent. Fayziyeva Feruza Xojimurodovna

O‘quv -uslubiy majmua O‘zDSMI Ilmiy metodik
Kengashining qarori bilan nashrga tavsiya qilingan
(2020 yil “29” yanvardagi 1-sonli bayonnoma)

MUNDARIJA

I.	ISHCHI DASTUR.....	4
II.	MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI.....	13
III.	NAZARIY MATERIALLAR.....	20
IV.	AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI.....	47
V.	KO‘CHMA MASHG‘ULOT MATERIALLARI.....	51
VI.	KEYSLAR BANKI.....	54
VII.	GLOSSARIY.....	59
VIII.	ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	157

I. ISHCHI DASTUR

I. ISHCHI DASTUR

Kirish

Dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son, 2019 yil 27 avgustdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-son, 2019 yil 8 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmonlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o‘zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish yo‘nalishining o‘ziga xos xususiyatlari hamda dolzarb masalalaridan kelib chiqqan holda dasturda tinglovchilarning mutaxassislik fanlar doirasidagi bilim, ko‘nikma, malaka hamda kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar takomillashtirilishi mumkin.

Modulning maqsadi va vazifalari

“San’atshunoslikning dolzarb masalalari” modulining maqsadi:

San’atshunoslikning(sohalar bo‘yicha) turli yo‘nalish va janrlar kesimida rivojlanish bosqichlari, tarixi va zamonaviy holatini qiyoslash orqali uning bugungi holatini belgilash, pedagog kadrlarning o‘quv-tarbiyaviy jarayonlarni yuqori ilmiy-metodik darajada ta’minlashlari uchun zarur bo‘ladigan kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarini yangilash hamda ularning kasbiy kompetentligi va pedagogik mahoratining oshishini ta’minlashdan iborat.

“San’atshunoslikning dolzarb masalalari” modulining vazifalari:

- “San’atshunoslik (turlari bo‘yicha)” yo‘nalishida pedagog kadrlarning kasbiy bilim, ko‘nikma, malakalarini uzluksiz yangilash va rivojlantirish mexanizmlarini yaratish;
- zamonaviy talablarga mos holda oliy ta’limning sifatini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan pedagoglarning kasbiy kompetentlik darajasini oshirish;
- maxsus fanlar sohasidagi o‘qitishning innovatsion texnologiyalari va ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘zlashtirish;
- san’atshunoslik sohasining yangi davr muammolari bo‘yicha ma’lumotlar berish va ularni qo‘llash uchun pedagog kadrlarni tayyorlashni ta’minlashga qaratilgan faoliyatni tashkil etishdir.

Modul bo'yicha tinglovchilarning bilimi, ko'nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar:

“San’atshunoslikning dolzarb masalalari” modulini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

Tinglovchi:

- san’atshunoslik fanlarining nazariy asoslarini, san’atshunoslik, fanining oliy ta’lim tizimidagi o‘rnini, san’atshunoslikning dolzarb muammolarini, san’atshunoslik fanlarini o‘qitishda innovatsion texnologiyalarni, san’at turlari va ularning o‘zaro integratsiyasini, san’at sohasidagi turli zamonaviy uslublar, yo‘nalish va tamoyillarni **bilishi** lozim;

- san’atshunoslik yo‘nalishi bo‘yicha xorijiy manbalardan pedagogik faoliyatda foydalanish, san’atshunoslik bo‘yicha xorijiy mamlakatlar tajribalaridan foydalanish va san’atshunoslik sohasidagi innovatsiyalarni ilmiy-tadqiqot va o‘quv jarayoniga tadbiiq etish **ko‘nikmalariga** ega bo‘lishi lozim.

- san’atshunoslik fanlarining metodik ta‘minotini yaratish va san’atshunoslik fanlarini o‘qitishda ilg‘or xorijiy tajribani qo‘llagan holda o‘quv jarayonini tashkil etish **malakalariga** ega bo‘lishi zarur.

Modulni tashkil etish bo'yicha tavsiyalar

“San’atshunoslikning dolzarb masalalari” moduli pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo‘yiladigan umumiy malaka talablari va o‘quv rejalari asosida shakllantirilgan bo‘lib, bu orqali oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining sohaga oid zamonaviy ta’lim va innovatsiya texnologiyalari, ilg‘or xorijiy tajribalardan samarali foydalanish, ilmiy faoliyatini muntazam yuksaltirish, shuningdek, pedagogik vaziyatlarda optimal qarorlar qabul qilish bilan bog‘liq kompetensiyalarga ega bo‘lishlari ta‘minlanadi.

Ushbu dasturda san’atshunoslikning bugungi holati, zamonaviy yondashuv va tendensiyalar san’at turlarining o‘zaro bog‘liqligi va alohida xususiyatlari kesimida ma’lumotlar keltiriladi. Qayta tayyorlash va malaka oshirish kursining o‘quv dasturi quyidagi modullar mazmunini o‘z ichiga qamrab oladi.

Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi

Mazkur modulning mazmuni o‘quv rejadagi “Ta’lim tizimida rejissyorlik va aktyorlik san’ati asoslari”, “San’atshunoslik fanlarini o‘qitish metodikasi”, “San’atshunoslikda ilg‘or xorijiy tajribalardan foydalanish” va “Art menejment” o‘quv modullari bilan uzviy bog‘langan holda pedagoglarning kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajasini orttirishga xizmat qiladi.

Modulning oliy ta'limdagi o'rni

Modulni o'zlashtirish orqali tinglovchilar oliy ta'lim muassasalarida o'qitiladigan "San'atshunoslik (turlari bo'yicha)" va uzviy o'zaro bog'liq boshqa fanlar bo'yicha mashg'ulotlarni olib borish, ularning mazmunini yangi, zamonaviy uslublar bilan boyitilgan holda amalda qo'llash va talabalar bilimini baholashga doir kasbiy kompetentlikka ega bo'ladilar.

Modul bo'yicha soatlar taqsimoti

№	Modul mavzulari	Tinglovchining o'quv yuklamasi, soat			
		Jami	Nazariy	Amaliy	Ko'chma
1.	San'atshunoslik fanining yetakchi tamoyillari. O'zbekiston san'atshunosligining ilmiy va badiiy an'analari, xususiyati.	4	4		
2.	San'atshunoslikda an'anaviy va zamonaviy san'atlarni o'rganish masalalari. An'anaviy san'atlar - ekran san'atlarining substansional komponentlari sifatida.	6	6		
3.	San'atshunoslikning bugungi holati va dolzarb muammolari. Ta'lim sifatining ijobiy o'zgarishiga xizmat qiluvchi omillar. San'atlarning o'zaro integratsiyasi.	2		2	
5.	Xorijiy adabiyotlar tahlili, ta'lim jarayoniga tadbiq etish masalalari. San'atshunoslik fanlariga innovatsion texnologiyalarning joriy qilinishi.	2		2	
6.	San'atshunoslik ilmiy tadqiqotlarining yetakchi jihatlari. O'zbekiston san'atshunosligining zamonaviy muammolari tahlili.	2		2	
7.	San'at ta'limida iqtidor tushunchasining mohiyati. San'atshunoslik fanini o'qitishning maqsad va vazifalar. Integratsion o'qish tajribalari.	4			4
Jami: 20 soat		20	10	6	4

NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu: San‘atshunoslik fanining yetakchi tamoyillari. O‘zbekiston san‘atshunosligining ilmiy va badiiy an‘analari, xususiyati(4 soat).

San‘atshunoslik fanining yetakchi tamoyillari. O‘zbekiston san‘atshunosligining ilmiy va badiiy an‘analari, xususiyati. San‘atshunoslik yo‘nalishi bo‘yicha tahsil olayotgan tinglovchi san‘at amaliyotidan, uning ijtimoiy funksiyalari, janrlar tizimi va ijodiy uslublaridan xabardor bo‘lishlari maqsadga muvofiqdir. Madaniyat, san‘at sohalaridagi ijodiy jarayonlarni OAVda yoritish va nomoddiy milliy qadriyatlarni targ‘ib etishda san‘atshunoslik muhim o‘rin tutadi. Shunday ekan, mazkur ma‘ruza tanlangan muayyan yo‘nalish bo‘yicha (teatr san‘ati, kino, TV, radio, musiqa va b.) soha mutaxassislari zamonaviy badiiy jarayonda qo‘lga kiritilayotgan yutuqlar bilan bir qatorda san‘at sohalarini tarixini, rivojlanishiga xos ijtimoiy-madaniy dinamikasini tahlil eta bilishlari, o‘z fikr-mulohazalarini muqobil janr va formatdagi tadqiqot sifatida OAV tizimida namoyon etish mahoratiga ega bo‘lishlarida muhim ahamiyat kasb etadi.

2-mavzu. San‘atshunoslikda an‘anaviy va zamonaviy san‘atlarni o‘rganish masalalari. An‘anaviy san‘atlar - ekran san‘atlarining substansional komponentlari sifatida(6 soat).

San‘atshunoslikda an‘anaviy va zamonaviy san‘atlarni o‘rganish masalalari. An‘anaviy san‘atlar - ekran san‘atlarining substansional komponentlari sifatida. An‘anaviy san‘atda dramaturgiya, musiqa, tasviriy san‘at, raqs, me‘morlik ajralmas birlikni tashkil etadi.

Mazkur nazariy darsda tinglovchilar teatrning o‘ziga xosligi, tarixiy bosqichlari, sintetik tabiatining yetakchi jihatlari, shuningdek san‘at turlarining funksiyasi hamda xususiyatlari bilan atroflicha tanishadilar.

AMALIY MASHG‘ULOT MAZMUNI

1-Amaliy mashg‘ulot: San‘atshunoslikning bugungi holati va dolzarb muammolari. Ta‘lim sifatining ijobiy o‘zgarishiga xizmat qiluvchi omillar. San‘atlarning o‘zaro integratsiyasi(2 soat).

San‘atshunoslik ilmiy tadqiqotlarining yetakchi jihatlari. O‘zbekiston san‘atshunosligining zamonaviy muammolari tahlili. Shu ma‘noda mazkur amaliy mashg‘ulotda tinglovchilar san‘at qonuniyati, funksiyasi borasidagi nazariy bilimlarni amaliyotga joriy qilish tamoyillari va mas‘uliyati haqida fikr almashadilar.

2-Amaliy mashg‘ulot: Xorijiy adabiyotlar tahlili, ta‘lim jarayoniga tadbiiq etish masalalari. San‘atshunoslik fanlariga innovatsion texnologiyalarning joriy qilinishi(2 soat).

San‘at ta‘limida iqtidor tushunchasining mohiyati. San‘atshunoslik fanini o‘qitishning maqsad va vazifalar. Integratsion o‘qish tajribalari. Tinglovchilar san‘at asarlarining ahamiyati xususida, qolaversa, san‘at turlari va janrlari, tasviriy va ifodaviy vositalari, san‘atlararo integratsiya borasida fikr almashadilar. Teatr, musiqa, tasviriy san‘at, kino va boshqa zamonaviy san‘atlarning jamiyat ijtimoiy, madaniy-ma‘naviy xayoti bilan uzviyligi, taniqli dramaturg, rejissyor, rassom, kompozitor va boshqalarning ijodi bilan tanishadilar va mavzu bo‘yicha ko‘tarilgan masalalar bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarini namoyish etadilar.

3-Amaliy mashg‘ulot: San‘atshunoslik ilmiy tadqiqotlarining yetakchi jihatlari. O‘zbekiston san‘atshunosligining zamonaviy muammolari tahlili(2 soat).

San‘atshunoslik ilmiy tadqiqotlarining yetakchi jihatlari. O‘zbekiston san‘atshunosligining zamonaviy muammolari tahlili. Tinglovchilar san‘atning turlari, evolyusiyasi, rivojlanish bosqichlari va tendensiyalarining yuzaga kelishi, taraqqiy etishi, o‘ziga xos qirralari haqida ma‘lumotlarga ega bo‘ladilar va mavzu bo‘yicha ko‘tarilgan masalalar bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarini namoyish etadilar.

KO‘CHMA MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-ko‘chma mashg‘ulot: San‘at ta‘limida iqtidor tushunchasining mohiyati. San‘atshunoslik fanini o‘qitishning maqsad va vazifalar. Integratsion o‘qish tajribalari.

Tinglovchilar guruhi bilan Toshkent shahrida joylashgan O‘zbek Milliy akademik drama teatri, Muqimiy nomidagi musiqali drama teatri, O‘zbekiston Yoshlar teatri, “Diydor” teatr studiyasi kabi ijodiy jamoalardan biriga tashrif buyuriladi. Teatrning ishlash kundaligi, repetitsiyalar jarayoni, ishlab chiqarish faoliyati bilan tanishiladi. Darsdan so‘ng muayyan spektakllar tahlil qilinadi va teatrning o‘ziga xosligi borasida fikr almashinadi.

O‘QITISH SHAKLLARI

Mazkur modul bo‘yicha quyidagi o‘qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma’ruzalar, amaliy mashg‘ulotlar (ma’lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);
- davra suhbatlari (ko‘rilayotgan loyiha yechimlari bo‘yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo‘yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI

II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI

Aqliy hujum (breynstorming – miyalar bo‘roni) – amaliy yoki ilmiy muammolarni hal etish fikrlarni jamoali generatsiya qilish usuli.

Metodning maqsadi: aqliy hujum vaqtida tinglovchilar murakkab muammoni birgalikda hal etishga intilishadi: ularni hal etish bo‘yicha o‘z fikrlarini bildiradi (generatsiya qiladi) va bu fikrlar tanqid qilinmasdan ular orasidan eng muvofiqi, samaralisi, maqbuli va shu kabi fikrlar tanlab olinib, muhokama qilinadi, rivojlantiriladi va ushbu fikrlarni asoslash va rad etish imkoniyatlari baholanadi.

Aqliy hujumning asosiy vazifasi – o‘qib-o‘rganish faoliyatini faollashtirish, muammoni mustaqil tushunish va hal etishga motivlashtirishni rivojlantirish, muloqot madaniyati, kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirish, fikrlash inersiyasidan qutilish va ijodiy masalani hal etishda fikrlashning oddiy borishini yengish.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri jamoali aqliy hujum – iloji boricha ko‘proq fikrlar yig‘ilishini ta‘minlaydi. Butun o‘quv guruhi (20 kishidan ortiq bo‘lmagan) bitta muammoni hal etadi.

Ommaviy aqliy hujum – mikro guruhlariga bo‘lingan va katta auditoriyada fikrlar generatsiyasi samaradorligini keskin oshirish imkonini beradi.

Har bir guruh ichida umumiy muammoning bir jihati hal etiladi.

Namuna: Guruhga muammoli vaziyat beriladi, misol uchun orkestrni tashkil etuvchi kollektivdagi psixologik vaziyat yomonlashib, konflikt chiqadigan darajaga yetib kelgan. Muammoni hal qilish bo‘yicha jamoali aqliy hujum, iloji boricha ko‘proq fikrlar yig‘ilishi tashkillashtiriladi.

Bu fikrlar tanqid qilinmasdan, ular orasidan eng samaralisi, maqbuli, ya‘ni vaziyatni normallashtirishga olib kelishi mumkin bo‘lgan fikrlar tanlab olinib, muhokama qilinadi, rivojlantiriladi va ushbu fikrlarni asoslash va rad etish imkoniyatlari baholanadi.

«**Keys-stadi**» - inglizcha so‘z bo‘lib, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «stadi» – o‘rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil qilish asosida o‘qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o‘rganishda foydalanish tartibida qo‘llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qayerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What).

“Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot ta’minoti bilan tanishtirish	<ul style="list-style-type: none"> ✓ yakka tartibdagi audio-vizual ish; ✓ keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda); ✓ axborotni umumlashtirish; ✓ axborot tahlili; ✓ muammolarni aniqlash
2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va o’quv topshirig‘ni belgilash	<ul style="list-style-type: none"> ✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muammolarni dolzarblik iyerarxiyasini aniqlash; ✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash
3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o’quv topshirig‘ining yechimini izlash, hal etish yo‘llarini ishlab chiqish	<ul style="list-style-type: none"> ✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muqobil yechim yo‘llarini ishlab chiqish; ✓ har bir yechimning imkoniyatlari va to‘siqlarni tahlil qilish; ✓ muqobil yechimlarni tanlash
4-bosqich: Keys yechimini yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	<ul style="list-style-type: none"> ✓ yakka va guruhda ishlash; ✓ muqobil variantlarni amalda qo‘llash imkoniyatlarini asoslash; ✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; ✓ yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish

Keysni bajarish bosqichlari va topshiriqlari

1. Keysdagi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablarni (kichik va individual guruhlarda aniqlash)

2. “Monna-Liza” portretini ishlashda qahramonning ruhiy holatini ochib berishda rassomning mahoratini aniqlang. (guruhlarda tahlil yozma yoki og‘zaki.)

Keys. Leonardo da Vinchi “Monna Liza” kartinasini chizayotganda asar qahramonining ichki dunyosini ochib bermaganida asar kartina darajasiga ko‘tarilarmidi?

Texnologiyaning maqsadi: Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o‘zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma’ruza mashg‘ulotlarida, mustahkamlashda, o‘tilgan mavzuni so‘rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg‘ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

Texnologiyani amalga oshirish tartibi:

- qatnashchilarga mavzuga oid bo‘lgan yakuniy xulosa yoki g‘oya taklif etiladi;
- har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog‘ozlarni tarqatiladi:




- ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhiiy tartibda taqdimot qilinadi.

FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o‘zlashtirilishiga asos bo‘ladi.

Namuna.

Fikr: “Tarixiy yoki maishiy mavzudagi ko‘pqomatli kompazitsiya asarining g‘oyasi”.

Topshiriq: Mazkur fikrga nisbatan munosabatingizni FSMU orqali tahlil qiling.



Metodning maqsadi: Mazkur metod tinglovchilarda yangi axborotlar

tizimini qabul qilish va bilimlarni o'zlashtirilishini yengillashtirish maqsadida qo'llaniladi, shuningdek, bu metod tinglovchilar uchun xotira mashqi vazifasini ham o'taydi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- o'qituvchi mashg'ulotga qadar mavzuning asosiy tushunchalari mazmuni yoritilgan input-matnni tarqatma yoki taqdimot ko'rinishida tayyorlaydi;
- yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn ta'lim oluvchilarga tarqatiladi yoki taqdimot ko'rinishida namoyish etiladi;
- ta'lim oluvchilar individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, o'z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydilar. Matn bilan ishlashda talabalar yoki qatnashchilarga quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi:
-

Belgilar	1-matn	2-matn	3-matn
“V” – tanish ma'lumot.			
“?” – mazkur ma'lumotni tushunmadim, izoh kerak.			
“+” bu ma'lumot men uchun yangilik.			
“– ” bu fikr yoki mazkur ma'lumotga qarshiman?			

Belgilangan vaqt yakunlangach, ta'lim oluvchilar uchun notanish va tushunarsiz bo'lgan ma'lumotlar o'qituvchi tomonidan tahlil qilinib, izohlanadi, ularning mohiyati to'liq yoritiladi. Savollarga javob beriladi va mashg'ulot yakunlanadi.

Metodning maqsadi: mazkur metod talabalar yoki qatnashchilarni mavzu buyicha tayanch tushunchalarni o'zlashtirish darajasini aniqlash, o'z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu buyicha dastlabki bilimlar darajasini tashhis qilish maqsadida qo'llaniladi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar mashg'ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- tinglovchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo'lgan so'zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi (individual yoki guruhli tartibda);
- tinglovchilar mazkur tushunchalar qanday ma'no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo'llanilishi haqida yozma ma'lumot beradilar;
- belgilangan vaqt yakuniga yetgach o'qituvchi berilgan tushunchalarning tugri va tuliq izohini uqib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;

- har bir ishtirokchi berilgan tugri javoblar bilan uzining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o‘z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

“Blits o‘yin” metodi

Metodning maqsadi: tinglovchilarda tezlik, axborotlar tizimini tahlil qilish, rejalashtirish, prognozlash ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Mazkur metodni baholash va mustahkamlash maqsadida qo‘llash samarali natijalarni beradi.

Metodni amalga oshirish bosqichlari:

1. Dastlab ishtirokchilarga belgilangan mavzu yoki biror bir kartina yuzasidan tayyorlangan topshiriq, ya‘ni tarqatma materiallarni alohida-alohida beriladi va ulardan materialni sinchiklab o‘rganish talab etiladi. Shundan so‘ng, ishtirokchilarga to‘g‘ri javoblar tarqatmadagi «yakka baho» kolonkasiga belgilash kerakligi tushuntiriladi. Bu bosqichda vazifa yakka tartibda bajariladi.

2. Navbatdagi bosqichda trener-o‘qituvchi ishtirokchilarga uch kishidan iborat kichik guruhlariga birlashtiradi va guruh a‘zolarini o‘z fikrlari bilan guruhdoshlarini tanishtirib, bahslashib, bir-biriga ta‘sir o‘tkazib, o‘z fikrlariga ishonirish, kelishgan holda bir to‘xtamga kelib, javoblarini «guruh bahosi» bo‘limiga raqamlar bilan belgilab chiqishni topshiradi. Bu vazifa uchun 15 daqiqa vaqt beriladi.

3. Barcha kichik guruhlar o‘z ishlarini tugatgach, to‘g‘ri harakatlar ketma-ketligi trener-o‘qituvchi tomonidan o‘qib eshittiriladi, va tinglovchilardan bu javoblarni «to‘g‘ri javob» bo‘limiga yozish so‘raladi.

4. «To‘g‘ri javob» bo‘limida berilgan raqamlardan «yakka baho» bo‘limida berilgan raqamlar taqqoslanib, farq bulsa «0», mos kelsa «1» ball quyish so‘raladi. Shundan so‘ng «yakka xato» bo‘limidagi farqlar yuqoridan pastga qarab qo‘shib chiqilib, umumiy yig‘indi hisoblanadi.

5. Xuddi shu tartibda «to‘g‘ri javob» va «guruh bahosi» o‘rtasidagi farq chiqariladi va ballar «guruh xatosi» bo‘limiga yozib, yuqoridan pastga qarab qo‘shiladi va umumiy yig‘indi keltirib chiqariladi.

6. Trener-o‘qituvchi yakka va guruh xatolarini to‘plangan umumiy yig‘indi bo‘yicha alohida-alohida sharhlab beradi.

7. Ishtirokchilarga olgan baholariga qarab, ularning mavzu bo‘yicha o‘zlashtirish darajalari aniqlanadi.

III. NAZARIY MATERIALLAR

III. NAZARIY MATERIALLAR

1-mavzu. San’atshunoslik fanining yetakchi tamoyillari. O‘zbekiston san’atshunosligining ilmiy va badiiy an’analari, hususiyati.

Reja:

- 1.1. San’atshunoslik fanining o‘ziga xosligi
- 1.2. San’at – insoniyat badiiy falsafiy tafakkurining mevasi

Tayanch tushunchalar: san’at namunasi, badiiyat, estetik did, asar, kolorit, garmoniya, ilmiy tadqiqot, metodologiya, amaliyot va nazariya uyg‘unligi.

1.1. San’atshunoslik fanining o‘ziga xosligi

San’atshunoslik yo‘nalishi bo‘yicha tahsil olayotgan tinglovchi san’at amaliyotidan, uning ijtimoiy funksiyalari, janrlar tizimi va ijodiy uslublaridan xabardor bo‘lishlari maqsadga muvofiqdir. Madaniyat, san’at sohalaridagi ijodiy jarayonlarni OAVda yoritish va nomoddiy milliy qadriyatlarni targ‘ib etishda san’atshunoslik muhim o‘rin tutadi. Shunday ekan, tanlangan muayyan yo‘nalish bo‘yicha (teatr san’ati, kino, TV, radio, musiqa va b.) soha mutaxassislari zamonaviy badiiy jarayonda qo‘lga kiritilayotgan yutuqlar bilan bir qatorda san’at sohaları tarixini, rivojlanishiga xos ijtimoiy-madaniy dinamikasini tahlil eta bilishlari, o‘z fikr-mulohazalarini muqobil janr va formatdagi tadqiqot sifatida OAV tizimida namoyon etish mahoratiga ega bo‘lishlari muhim. Bugungi kun san’atshunoslik mutaxassislar uchun katta muammo bo‘lib turgan jihat ham aynan nazariya bilan amaliyot o‘rtasida uzilish mavjudligi bilan izohlanadi.

San’at – insoniyat badiiy falsafiy tafakkurining mevasidir. Shu bois unga bo‘lgan inson ehtiyoji aslo so‘nmaydi. Insoniyat madaniy taraqqiyoti zamondan zamonga qarab o‘sib, rivojlanib borar ekan, san’atga bo‘lgan ehtiyoj ham shunga monand muttasil o‘sib boradi. Zamon taqozosi va talabi sifatida yangi turlar, yangi janrlar paydo bo‘laveradi. San’atkor badiiy tafakkuriga, ijro mahoratiga, san’atning badiiy-falsafiy, ijtimoiy-tarbiyaviy asoslariga bo‘lgan talablar ham muttasil o‘sib boraveradi. Ikkinchidan, san’at muxlislarining, demakki, keng xalq ommasining san’atdan badiiy-estetik zavq olishga intilishi asnosida uning san’at turlari

xususiyatlarini anglashga, san'atkorlar hayoti, ijodi, mahoratlarining o'ziga xos tomonlarini, imkoniyat darajalarini, san'atlar taraqqiyoti jarayonlaridagi yutuqli va muammoli tomonlarini bilishga intilishi azaldan yuksak darajada bo'lgan. Shu bois, bugungi axborot-kommunikativ imkoniyatlar oshgan, globallashuv jadallashgan bir sharoitda bu masala yanada o'tkirlashib ham badiiy-ijtimoiy, ham ijtimoiy-iqtisodiy dolzarblik ko'rsatmoqda. Har ikkala jarayonning garmonik tarzda borishi va rivojlanishini ta'minlashda juda ko'p omillar qatori san'atshunoslikning o'rni ham eng muhim shartlardan biri bo'lib kelmoqda.

Bugungi kunda ayrim tadqiqotchilar san'at o'z mahsuliga ega bo'lganligi sababli uni ishlab chiqarish tarmog'iga qo'shadilar. Boshqalarning fikricha esa san'at mahsuli estetik ramzga ega va madaniy jihatdan estetik ehtiyojni qondirishga qaratilmagan boshqa mahsulotlardan ajralib turadi. Lekin ikkala turdagi mahsulot qandaydir ma'lum bir axborot tashuvchisi hisoblanadi va qay biri aynan san'atga tegishli ekanligini aniqlash ba'zi bir xollarda qiyin bo'ladi. Baumolning fikricha, kolleksioner masalan san'at predmetini xarid qilishidan estetik zavq olishi bilan birga moliyaviy daromadni ham ko'zlaydi. Xonig esa rangtasvir asarini moddiy madaniyatning tugallangan predmeti (artefakt), tasviriy mahsul va iste'mol predmeti sifatida tavsiflagan.

Barrere va Santagata (1999) haykaltarosh Konstantin Brankusining san'atga tegishli va san'atga tegishli emasligini qanchalik murakkab ekanligini namoyish qilish maqsadida 1927 yili Nyu Yorkdagi Bojxona boshqarmasiga qarshi bo'lgan sud ishini misol tariqasida keltiradilar. Uning Nyu York portiga olib kirilgan "Fazodagi qush" nomli haykalini qanday tovarlar guruxiga kiritish qiyinchilik tug'dirdi, chunki 1913 yildan buyon AQShga kelgan san'atga tegishli barcha tovarlar bojxona to'lovlaridan ozod etilgan edi. Lekin ko'pchilik haykalni ishlab chiqarishga xosligi va undan import boji undirilishi kerakligini bahslashishadi. Brankusi bu ishni yutib chiqdi, lekin hanuzgacha san'at mahsulini aniqlashda ko'plab bahslar olib borilmoqda. Ushbu vaqtda aniqlangan omillarga san'at ishining originalligi va haqqoniyligi, u qo'lda yasalgan va yasalmaganligi, uning amaliy qiymati va iste'mol ko'rsatkichlari kiritildi. Hozirda ko'plab san'at ishlarini uning

originalidan farqlash mushkul. Ammo sanoat prototiplar original hisoblansa ham ular san'at asarlari emasligicha qolaveradi. San'atning chegarasi cheksiz va zamonaviy san'at vaqt bilan chegaralangan, hamda ommaviy ishlab chiqarish omillarini o'ziga jalb etadi. Jismoniy originallik o'rnini tez tez yangi g'oyalar egallaydi. San'atshunoslikning o'ziga xos qirralari, rivojlanish tendensiyalari uning subyekt va obyektlaridagi o'zgarishlarda namoyon bo'ladi. Subyektlariga san'at mahsuli yaratuvchilari, vositachilar va iste'molchilar kirsam, obyektlarini esa san'at mahsuli, tashkilotlar, shaxslar tashkil etadi. San'atshunos esa bu borada o'ziga xos vositachi, asl san'at va sanoat mahsulining qiymatini belgilovchi mutaxassisdir.

O'zbekiston mustaqil davlat deb e'lon qilingach, milliy qadriyatlarni tiklash va ularni Istiqlol davri talablari asosida rivojlantirish san'at ahlining asosiy vazifalaridan bo'lib qoldi. Kino, teatr, musiqa, tasviriy san'at yo'nalishlarida qadriyatlarimiz aks etgan, ulkan ajdodlarimiz hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan filmlar, spektakllar, oratoriyalar, kartinalar yaratila boshlandi. O'z navbatida mazkur yangilanishlar jarayoni ham san'atshunoslik tadqiqotlarida aks etdi. Yangi davrning eng e'tiborli jihatlaridan bir shunda ediki, san'atshunoslik fani o'z metodologiyasini o'zgartirdi. Metodologiyaning yangilanishi, uni milliy istiqloq mafkurasiga muvofiq tarzda mazmunan kengayishi, metodlar qamrovining oshishi san'at masalalarini keng qamrab olishga, xolis va chuqur tahlil, atroflicha tadqiq qilishga imkon berdi.

1.2. San'at – insoniyat badiiy falsafiy tafakkurining mevasi sifatida.

San'atning barcha turlarini san'atshunoslik nuqtai nazaridan, ularning o'ziga xos xususiyatlarini anglash, ommabop tarzda tahlil va targ'ib etish malakasini egallashga qaratilgan nazariy, ijodiy va amaliy masalalarni talab etadi. Bu borada barcha turdagi metodlardan kompleks tarzda foydalanish jahon san'atshunosligi amaliyotida qabul qilingan.

San'at – insoniyat badiiy falsafiy tafakkurining mevasidir. Shu bois unga bo'lgan inson ehtiyoji aslo so'nmaydi. Insoniyat madaniy taraqqiyoti zamondan zamonga qarab o'sib, rivojlanib borar ekan, san'atga bo'lgan ehtiyoj ham shunga monand muttasil o'sib boradi. Zamon taqozosi va talabi sifatida yangi turlar, yangi

janrlar paydo bo‘laveradi. San’atkor badiiy tafakkuriga, ijro mahoratiga, san’atning badiiy-falsafiy, ijtimoiy-tarbiyaviy asoslariga bo‘lgan talablar ham muttasil o‘sib boraveradi. Ikkinchidan, san’at muxlislarining, demakki, keng xalq ommasining san’atdan badiiy-estetik zavq olishga intilishi asnosida uning san’at turlari xususiyatlarini anglashga, san’atkorlar hayoti, ijodi, mahoratlarining o‘ziga xos tomonlarini, imkoniyat darajalarini, san’atlar taraqqiyoti jarayonlaridagi yutuqli va muammoli tomonlarini bilishga intilishi azaldan yuksak darajada bo‘lgan. Shu bois, bugungi axborot-kommunikativ imkoniyatlar oshgan, globallashuv jadallashgan bir sharoitda bu masala yanada o‘tkirlashib ham badiiy-ijtimoiy, ham ijtimoiy-iqtisodiy dolzarblik ko‘rsatmoqda. Har ikkala jarayonning garmonik tarzda borishi va rivojlanishini ta’minlashda juda ko‘p omillar qatori san’atshunoslikning o‘rni ham eng muhim shartlardan biri bo‘lib kelmoqda.

San’at – keng ma’noli tushunchadir. Masalan, qadimgi yunonlar musiqa, raqs va poeziyani san’at deb bilganlar. O‘rta asrlarda esa san’at tarkibiga tasviriy san’at, kasallarni davolash va dorixona ishlari ham kiritilgan. Bugungi kunda “san’at” so‘zi «voqelikni badiiy timsollar vositasida ijodiy aks ettirish», «ishning ko‘zini bilish va mahorat ko‘rsatish jarayoni», har kanday ishning o‘zi va u talab qiladigan mahorat darajasi ma’nolarida qo‘llaniladi.

San’at inson mehnati, aql-idroki, shuuri bilan yaratilgan vujudga kelgan, ijod qilingan narsalardir. San’at inson faoliyatining ijodkorlik turini anglatib har bir san’at asarida shaxsning o‘ziga xos iste’dodi namoyon bo‘ladi. Va nihoyat san’at insonning mahorati bilan chambarchas bog‘lanib ketgandir. Badiiy faoliyat kurtaklari estetik ehtiyojlardan sekin-asta badiiy ehtiyojlar xolda namoyon bo‘lib borgani sari, aqliy va jismoniy mehnatning uyg‘unlashib borishi jarayonida san’at xam rivojlanadi. Aql idrok va qo‘l mutannosibligi ajoyib, hayratomuz san’at mo‘jizalarini yaratishga olib keldi. San’at har doim mehnat bilan uyg‘un tarzda rivojlanib boradi. Shu bois badiiy faoliyat shakllari inson mehnati zaminida vujudga kelib, bevosita mehnat jarayonlari bilan chirmashib ketgan. Badiiy faoliyatning ilk shakllaridayok san’atning juda ko‘p belgi va xossalari paydo bo‘lgan. Lekin ularda

yakka shaxs omili yetishmaydi, bunga misol qilib, qadim petrogliflarni olish mumkin.

San'at va shaxs. San'at boshidan oxirigacha shaxsdan boshlanadi, shaxs bilan shakllanadi, shaxs bilan qadr topadi. Shaxs san'at ijodkori, badiiy qadriyatlar yaratuvchisi bo'lishi bilan birga shaxs sifatida san'atning asosiy obyekt va mavzusi hamdir. Qadimgi odamlar badiiy faoliyati jarayonida tabiatning ramziy-timsoliy aks ettirishda insonning mualliflik uslubi paydo bo'ldi. Badiiy muallif – ijodkorning betakror iste'dodini namoyon qiladi.

San'atning ijtimoiylik xarakteri. San'at tarixiy taraqqiyot jarayonida hamisha ijtimoiy ehtiyojlarni qondirib kelgan. San'at ijtimoiy hayotning murakkab, rangorang munosabatlari bilan aloqador bo'lib, u bir vaqtning o'zida ham mehnatning alohida turi ham ijtimoiy ongning bir shakli ham o'ziga xos bilim sohasi ham ijodiy faoliyatning bir ko'rinishi sifatida amal qiladi. San'at birinchi navbatda ijtimoiy ong shaklidir, uning boshqa barcha tavsiflari ana shu sifatidan kelib chiqadi va shu tahlilga asoslanadi. San'at ijtimoiy turmush jarayonlari bilan bog'liq. Buni qadimgi odamlarning moddiy va ma'naviy boyliklar yaratishda yaqqol ko'zga tashlanadi. San'at ijtimoiy hayotning mustaqil sohasi bo'lib, o'ziga xos qonuniyatlari, vazifalariga ko'ra alohida jamiyat birligini ifodalaydi. San'at jamiyatning barcha sohalariga ta'sir o'tkazadi, ijtimoiy ongning barcha shakllari bilan aloqaga kirishadi. San'at bilan ijtimoiy hayotni bog'lab turadigan juda ko'p vositachi halqalar mavjud. San'at taraqqiyotining nisbiy mustaqilligi shu bilan izohlanadiki, jamiyat badiiy ravnaqining darajasi hamma vaqt uning iqtisodiy taraqqiyoti darajasiga mos kelavermaydi, ya'ni san'at ravnaqi bilan jamiyat badiiy asosi o'rtasida hamma vaqt ham mutanosiblik bo'lmaydi. Jamiyat badiiy ravnaqining darajasi, uning taraqqiyoti yoki tanazzuli, san'atning u yoki bu ko'rinishida yorqin ifoda topishi ijtimoiy munosabatlar tabiatiga, mafkuraviy hayot xususiyatlariga, jamiyatda shaxsning egallab turgan maqomiga bog'liq.

Nazorat savollari

1. San'atshunoslik fanining ijtimoiy ahamiyati nimada?

2. San'at taraqqiyoti va san'atshunoslik munosabatlarini qanday talqin qilasiz?
3. San'atning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni va rolini sharhlang.
4. San'atning ijtimoiy ongga ta'siri masalasini qanday tushunasiz?
5. Globallashuv davrida san'at va jamiyat munosabatlari borasida fikringiz qanday?
6. San'at va shaxs deganda nimani tushunasiz?
7. San'atning ijtimoiylik xarakteri nimada?
8. San'at taraqqiyotining omillari.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Aristotel. Poetika. - Toshkent? 1978 y.
2. Baxtin M.M. Estetika slovesnogo tvorchestva. M., 1979.
3. Veselovskiy A.N. Istoricheskaya poetika. M., 1989.
4. Velflin G. Osnovniye ponyatiya istorii iskusstv. Spb., 1994.
5. Gachev G.D. Soderzhatelnost xudojestvennix form. Epos. Lirik. Teatr. M., 1968.
6. Kogan I. Morfologiya iskusstva. -M.: Iskusstvo, 1972.
7. Zrelishniye iskusstva v sisteme xudojestvennoy kulturi Uzbekistana XX veka. Sbornik statyey. T.1. Nauchniy red. M. Tulyaxodjayeva. -Tashkent: San'at, 2008.- 239 s.
8. Ismoilov E. Mannon Uyg'ur.-Toshkent: Adabiyot va san'at n., 1983.-288 b.
9. Islomov T. Tarix va sahna.-Toshkent:- G'.G'ulom nashriyoti, 1998.-136.b.
10. Kaydalova O.N. Traditsii i sovremennost. Teatralnoye iskusstvo Sredney Azii i Kazaxstana. -M.: Iskusstvo, 1977. -296 s.
11. Muxtarov I. A. Teatr i klassika. - T.: izd. im. G. Gulyama, 1988. - 176 s.
126. Muxtarov I. A. Teatr i yego aktyori (Tendensii razvitiya uzbekskogo ssenicheskogo iskusstva 50-60 godov. Na materiale teatra im. Xamzi). -Tashkent: Fan, 1989.-146 s.
13. Rahmonov M. O'zbek teatri tarixi (XVIII asrdan XX asr avvaligacha o'zbek teatr madaniyatining taraqqiyot yo'llari). -Toshkent: Fan, 1968.-430 b.
14. Rahmonov M. Hamza nomidagi O'zbek davlat akademik drama teatri tarixi. Birinchi kitob (1914-1960 yillar.)-Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyot, 2001.- 328 b.

15. Qodirov M. O‘zbek muzikali dramasi.–Toshkent: O‘zkompartiya, 1971.–40b.
16. Qodirov M. O‘zbek teatri tarixi (XVIII-XX asrlar).–Toshkent: Ijod dunyosi, 2003.–240 b.

2-mavzu. San’atshunoslikda an’anaviy va zamonaviy san’atlarni o‘rganish masalalari. An’anaviy san’atlar - ekran san’atlarining substansional komponentlari sifatida.

Reja:

- 2.1. Teatr –harakat orqali ifodalovchi san’atning eng ommaviy va qadimiy turlaridan biridir.
- 2.2. Teatr san’atining tarixiy shakllanish yo‘li.
- 2.3. Teatr funksiyasi va uning ilmiy nazariy asoslari

Tayanch iboralar: teatr san’ati, drama, komediya, satira, tragediya, rejissura, pantomima, opera, balet, dekoratsiya, sahna, tomoshabin, spektakl, pe’sa, aktyor, mezonahna, musiqali drama, qo‘g‘irchaq teatri, maydon o‘yinlari va marosimlari.

2.1. Teatr –harakat orqali ifodalovchi san’atning eng ommaviy va qadimiy turlaridan biridir.

Teatr – obyektiv borliqdagi voqea-xodisalarni so‘z, soz, musiqa, raqs, pantomima, harakat orqali ifodalovchi san’atning eng ommaviy va qadimiy turlaridan biridir.

Teatr – yunoncha “teatron” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “tomoshagoh” ma’nosini anglatadi. Aktyorlarning sahnaviy harakatlari orqali hayotni, hayotiy xodisalarni badiiy ravishda aks ettiruvchi san’at turi, shu san’atga asoslangan tomoshalar ham teatr deb ataladi. Yoki Shunday san’at namoyish qilinadigan, tomoshalar ko‘rsatiladigan bino tushuniladi. Umumiy ma’noda esa aktyorlarning sahnadagi orqali ko‘rsatiladigan tomosha, spektakl nazarda tutiladi. Ayni paytda mustaqil san’at turi bo‘lib, uning o‘ziga hos ifoda vositasi, aktyorning omma

oldidagi o‘yini jarayonida yuzaga keladigan sahnaviy voqealardan tarkib topadi. Boshqa san’atlarda bo‘lganidek teatr san’atida ham xalq hayoti, tarixi, dunyoqarashi aks etib, jamiyat taraqqiyoti, ma’naviyati, madaniyati bilan bog‘liq holda o‘zgarib, takomillashib boradi. Teatr asosida yozma yoki og‘zaki dramaturgiya yotadi.

Teatr san’ati sintetik san’at bo‘lib, jamiyat hayotida tomoshabinlarning ma’naviy va estetik tarbiyasida muhim o‘rin tutadi. Unda dramaturgiya, musiqa, tasviriy san’at, raqs, me’morlik ajralmas birlikni tashkil etadi.

Teatrning san’atining muhim vositalaridan biri – sahna nutqidir. Aktyor qahramonning pe’sadagi so‘zlarini o‘zlashtirib olar ekan, qahramon qiyofasida, holatlarda turib uning nutqiy tavsifini yaratadi, boshqa pesonajlar bilan muloqotga kirishadi. Sahna nutqi harakatlarning ochilishida, asar mazmuni, konfliktining yoritilishida muhim o‘rin tutadi.

Sahna asarlarining yaratilishida teatr rassoilari (ssenografiyasi) ning hissasi katta. Rassom asar mazmuni, g‘oyasi va rejissyorlik yechimidan kelib chiqib, o‘ziga hos va sahna ko‘rinishlariga mos dekoratsiya yaratadi. Bu esa ma’lum ma’noda sahna asarining muvaffaqiyatini ta’minlayli.

Teatr san’atida musiqaning ham alohida o‘rni bor. Tomosha turi va janriga bohliq holda u turli vazifani bajaradi: dramatik san’atkorlarda yordamchi vosita bo‘lsa, operettda, musiqali drammda so‘z bilan barobar huquqqa ega. Opera va baletda esa hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Teatr san’ati fani yurtimizda va butun dunyoda teatr san’atining kelib chiqishi, tarixiy taraqqiyot bosqichlari, hozirgi dolzarb muammolari va badiiy jarayonlarini o‘rganadigan, tahlil qiladigan mustaqil fanlardan biridir.

Tragediya – yunoncha so‘z bo‘lib dramaning bir turi – hayotiy kuchlar, qarama-qarshi xarakterlar, ehtiroslar o‘rtasidagi keskin kurash, konflikt daxshatli voqea, xodisa, mudhish ahvol. asos qilib olingan va ko‘pincha qahramonning halokati bilan tugaydigan fojiali asar (Shekspirning “Gamlet”, Shayxzodaning “Mirzo Ulug‘bek” tragediyalari).

Komediya – hayotda kechayotgan ijtimoiy-siyosiy va boshqa voqealarning asl qiyofasini masxalovchi kulgili sahna asari.

Tragikomediya – fojiali komediya, ham tragediya, ham komediya elementlarini o‘z ichiga olgan sahna asari.


Satira – yunoncha so‘z bo‘lib hayotdagi salbiy xodisalarni, kamchilik a nuqsonlarni qattiq masxaralaydigan, qoralaydigan o‘tkir hajviy asar.

Teatr san’atining asosiy yo‘nalishlari:

1. Drama teatri
2. Musiqali drama
3. Satira teatri
4. Opera va balet teatri
5. Operetta teatri
6. Qo‘g‘irchoq teatri
7. Qiziqchi va masxarabozlar teatri
8. Teatr studiyalari
9. Estrada teatri
10. Modalar teatri

O‘zbek tilida ko‘pincha tomosha atamasini ishlatish odat tusiga kirgan. “Tomosha” so‘zi asli arabcha bo‘lib, hozirgi o‘zbek tiliga o‘giranimizda qarash, ko‘zdan kechirish, nigoh tashlash degan ma’nolarni anglatadi. Pofessor M.Qodirov “tomosha” so‘zining mohiyati xususida to‘xtalar ekan, quyidagi mulohazalarni bildiradi. “Tomosha-bu ko‘pchilikka qaratilgan va ko‘ruvchini asosan quvontiradigan hangomalar, o‘yin-kulgilar, buyumlar manzaralar, ijrochilik san’atlari (musiqa, masxara, muqallid, qo‘g‘irchoq o‘yin, qissago‘ylik, voizlik, dorbozlik va hokazolar) namoyondalarining chiqishlari; xalq o‘yinlari, marosimlari, mana shularning hammasi ko‘rish, ulardan ta’sirlanish jarayonidir. Tomoshada ikki tomon-ijrochi va tomoshabinlarning jonli muloqoti muhim hal qiluvchi xususiyatdir. Tomoshalar xalq va davlat bayramlari, turli-tuman marosimlar va to‘ylar munosabati bilan tashkil etiladigan bazm va sayillarda yakka yoki bir guruh ijrochilarning hohishlari bilan to‘planadigan yig‘in va ma’rakalarda bo‘lib o‘tadi”. Manbalarga qaraganda, tomosha ko‘rsatiladigan joy o‘tmishda “tomoshagoh”, “zo‘rxona” (kurash uyushtiriladigan maydon) “tarabxona”, “ma’raka maydoni”,

“sayilgoh”, “o‘yingoh”, “toypon” (uloq musobaqaalari o‘tkazilayotganda g‘olib chavandozlarga sovrinni tantanali topshiradigan sahna) kabi turli mahalliy tushunchalar iste‘mol qilingan. “Ma‘raka” so‘zining lug‘aviy ma‘nosi urush maydonidir. Istiloda va ko‘chma ma‘noda esa xaloyiq to‘planadigan va har xil kishilar o‘rtaga chiqib qobiliyati, hunarini namoyish etadigan joy ham ma‘raka deyilgan.



Xaloyiq o‘rtasida ko‘rsatiladigan tomoshalarda eng muhim xususiyat ishqibozlar bilan ijrochilar o‘rtasidagi muloqotdir. Tomoshalar o‘tadigan joylarning ma‘raka deb atalishi ham shundan. Janubiy viloyatlarda xalq orasida “to‘pxona”, “davra”, “qur” kabi mahalliy atamalar ham ishlatiladi. Tomoshalarni chor atrofda kuzatib, hordiq chiqarish bilan birga ma‘lum darajada unda ishtirok etuvchilar “tomoshachi”, “tomoshabin” deb ataladi. XX asrda ro‘y bera boshlagan madaniy transformatsiya jarayonlari natijasida bunday atamalar safiga yangilari kelib qo‘shildi. Zamonaviy binolarning qurilishi, Ovro‘po namunasidagi yangi, har taraflama qulay tomosha saroylarining qaror topishi bunga sabab bo‘ldi. “Teatr”, “tomosha zali”, “madaniyat saroyi”, “san‘at saroyi”, “san‘at galereyasi”, “ko‘rgazma zali”, “kinoteatr”, “pavilyon”, “sirk maneji”, “sport saroyi”, “stadion”, “ippodrom”. “tennis korti”, “basseyn” kabi atamalar shular jumlasidandir. Bugungi kunga kelib bunday atamalar ham mazmun ham son jihatdan yanada kengayib bormoqda.

2.2. Teatr san‘atining tarixiy shakllanish yo‘li

Teatr san'ati uzoq tarixga ega bo'lib, uning asosiy unsurlari (boshqa qiyofaga kirish, dialog, to'qnashuv kabi) insoniyatning qadimiy davrlarida, ovchilik mehnat va diniy marosim, bayramlar bilan bog'liq totemizm, animizm kabi qadimgi dunyoqarashlar va ajdodlar ruhlariga sig'inish bilan bog'liq holda shakllangan. Yunoniston, Hindiston, Markaziy Osiyoda miloddan avvalgi to'qqizinchi asrdayoq tomosha san'atlari jamiyat hayotida muhim o'rin tutgan.

Hindistonda teatr sanskrit tarzida xalq teatri shakllarida hamda "Maxobxorat" va "Ramayana" dostonlari bilan bog'liq holda rivojlangan. Dramaturgiya va sahna san'ati haqida "Natyashastra" nomli risola yaratilgan. Keyinroq teatr yaqin sharq va rimga ham yoyilgan. Ayniqsa rimda teatrning yangi shakli va turlari yaratilgan. G'arbiy Yevropada teatr san'atining dastlabki namunalari sayyor aktyorlar janglyorlar ijodida, Rossiyada rus skomoroxlari faoliyatida yuzaga kelgan. Uyg'onish davrida vujudga kelgan drama yangi shakldagi professional teatrning shakllanishiga zamin yaratdi. O'n oltinchi asr oxiri – o'n sakkizinchi asr o'rtalaridan balet san'atiga asos solingan bo'lsa, o'n to'qqizinchi asr o'rtalaridan operetta mustaqil teatr turi sifatida rivojlana boshladi.



Teatr san'atining keyingi taraqqiyoti klassizmning keng yoyilishi bilan bog'liq bo'ldi. O'n sakkizinchi asrda ma'rifatchilik oqimidagi teatr taraqqiy etdi. Asta sekin realistik tendensiya kuchaydi. Ayniqsa, Galdoni, Shiller kabilar ijodida realizm yorqin namayon bo'ldi. 18 asrning oxirlariga kelib drama, melodrama, komediyalarda satirik yo'nalishlarning yuzaga kelishi teatrda demokratik asosning kuchayishiga sabab bo'ldi. Teatr g'oyaviy va badiiy kurashlar maydoniga aylandi.

XIX asrning birinchi yarmida vujudga kelgan romantik yoʻnalish teatrda gumanistik ideallar va koʻp hollarda hayotiy orzularning yoritilishiga olib keldi. Dramada taqlidgoʻylikdan iborat klassitsizmga qarshi oʻziga hos milliylik, xalqchilik, tarixiylik va ijtimoiy adolat uchun kurash ohanglari keng quloq yoydi.



Italiyadagi Kolizey teatri V-IV asr

XIX asr oxirlaridan teatrni isloh qilishning yangi davri boshlandi. Teatr badiiy adabiyot (proza, poeziya), yangi drama (Chexov va boshqalar) bilan boyidi. XIX asr oxirlarida XX asr boshlarida teatrlarda aktyorlik sanʼatida ham yangi taʼlim uslubi – Stanislavskiy sistemasini qoʻllash boshlandi. XX asrning yigirmanchi yillarida Meyerxold, Vaxtangovlarning rejissyorlik faoliyati teatrning rivojiga katta hissa boʻlib qoʻshildi. XX asr oʻrtalarida Gʻarb rejissurasi va sahna sanʼatiga B.Brextning ijodiy uslubi katta taʼsir koʻrsatdi. Zamonaviy teatr dunyo teatrining demokratik, xalqchil anʼanalarini mustaqil oʻzlashtirib borishi, sahnaviy talqinlarning rang-barangligi bilan ajralib turadi.



Italiya opera teatri 1875 yil qurilgan.

O‘zbekistonda an’anaviy teatr tarixi juda qadimiydir. Uning kurtaklari ibtidoiy jamoa davridayoq ov va boshqa mehnat jarayonlari aks etgan taqlidiy raqslar, jangovar va boshqa xalq o‘yinlari, tabiat kuchlariga topinish oqibatida yuzaga kelgan marosimlar shaklida namoyon bo‘lgan. Miloddan avvalgi VII-VI asrdayoq turonda zardushtiylik va uning muqaddas kitoblar to‘plami Avesto bilan bog‘liq ikki toifa kulgili va qayg‘uli tomoshalar shakllangan. Yunon baqtriya podsholigi davrida Oyxonim, Nisa, shahri G‘ulg‘ulada maxsus teatrlar bo‘lib, ularda Yevripidning “Alkesta”, “Ippolit” kabi tragediyalari ko‘rsatilganligi ma’lum. Miloddan avvalgi 1-asrlardan milodiy 4-asrda Kushon davlatida Buddha dini bilan bog‘liq turli teatrlashgan tomoshalar mavjud bo‘lgan. Ayritom ibodatxonasi peshtoqidagi cholg‘uchi qizlarning tasvirlari shuni ko‘rsatadi. Asta-sekin Turonda teatr san’ati diniy marosimlar qobig‘idan chiqib dunyoviy mazmun kasb etadi – inson hayoti, ijtimoiy munosabatlarni tasvirlashga e’tibor kuchayadi.

VI-VII asrlarda Turon yurtidan chiqqan cholg‘uchilar, aktyor va raqqosalar Buyuk ipak yo‘li orqali qo‘shni yurtlarga ijodiy safar qiladilar. IX-XII asrlarda xalq bayramlari, marosimlari, urf-odatlari va ular bilan bog‘liq tomoshalar tiklanibgina qolmay, aholi orasida keng tarqalddi. Masxara va taqlid teatri har jihatdan rivojlandi. Temuriylar davrida teatr san’atida keskin yuksalish ro‘y berdi. Sharofiddin Ali Yazdiy, Ibn Arabshox, Klavixolarning ma’lumotlaricha bu davrda poytaxt Samarqand va boshqa nufuzli shaharlarda ommaviy teatrlashgan maydon tomoshalari uyushtirilgan. An’anaviy teatr va boshqa san’at tomoshalari ayniqsa Mizzo Ulug‘bek davrida (1394-1440) Movaraunnahrda, Xusayin Boyqaro davrida (1469-1576) Xurosonda taraqqiy topdi.

XX asrga kelib, O‘zbekiston hududida birinchi yevropacha rusumdagi professional teatr paydo bo‘ldi. Bu teatr jamoasi 1913 yilning o‘rtalarida Toshkent shahrida shakllanib, 1914 yilning boshlarida ilk milliy pyesa – tomoshani sahnaga qo‘ygan va shu tariqa rasman faoliyat boshlagan va dastlab "truppa" deb atalgan. "Truppa" asli teatr va sirk yo‘nalishidagi ijodiy jamoa ma’nosini anglatadigan so‘z bo‘lib, Rossiyada teatr guruhlari "teatralniye truppi" deb atalar edi. Turkiston XX asr boshlarida Chor Rossiyasining mustamlakasi bo‘lgani uchun teatr sohasida ham

imperiyaning hukmron aqidalariga bo'ysunishga to'g'ri kelar, ayniqsa, teatrdek yirik madaniy muassasani rasmiy ro'yxatdan o'tkazish, uning faoliyati uchun ruxsat olishda shunday yo'l tutish talab qilinardi. Ana shu tarixiy voqealarning bevosita ishtirokchisi, tashkilotchisi bo'lgan atoqli pedagog, adib va dramaturg Abdulla Avloniy "Tarjimai hol" da bu haqda quyidagi ma'lumotlarni yozib qoldirgan: "1913 yildan boshlab xalqning ko'zin ochmoq, madaniyatga yaqinlashtirmoq uchun teatru kirishib, teatru ishlarini yo'lga qo'yuvchilarning boshlug'u bo'lib, Turkistonning bir necha shahar-lariga borib o'zbeklar orasida teatru yo'l ochdim... "Turon" ismli teatralniy blag'otvoritelniy jamiyatni yuzaga chiqardim". Ta'kidlash kerakki, o'sha davrga oid boshqa hujjat va dalillar ham 1913 yilda havaskorlar guruhi shaklida ish boshlagan bu ijodiy jamoa 1914 yildan e'tiboran "Turon" truppa nomi olib, professional asosda faoliyat ko'rsata boshlaganidan guvohlik beradi.

Mazkur truppa 1913 yilning iyun-iyul oylarida norasmiy ravishda spektakllar ko'rsatishni boshlaydi. Ijodiy guruhning tashkiliy va targ'ibot ishlarida Toshkent ma'rifatparvarlarining yetakchisi Munavvar qori Abdurashidxonov faol ishtirok etadi. Truppaning ilk spektakli 1913 yili 8 avgustda Shayx Xovand Tohur bog'ida "Tomosha kechasi" sifatida o'tkaziladi. Qayd etish kerakki, o'sha paytda Turkiston o'lkasining boshqa bironta shahrida milliy teatr jamoasi yo'q edi. Samarqand shahrida haftasiga bir marta nashr etiladigan "Oyina" jurnalining 1913 yil 14 noyabr sonida "Padarkush" teatr risolasi chop etilgani haqida ma'lumot berilib, bu asarni sahnaga qo'yish uchun muallifdan ruxsat olinganiga qaramasdan, u hanuz o'ynalmay turgani aytiladi.

Toshkentda 1913 yilning dekabr oyidan boshlab "Padarkush" ni sahnalashtirish uchun hozirlik ishlari boshlanadi. Bu jarayonda yangi usul maktablari muallimlari faol ishtirok etishadi. Chunonchi, Abdulla Avloniy, Muhammadjon qori, Nizomiddin Xo'jayev, Shokirjon Rahimiy kabi ma'rifatparvarlar bu borada jonbozlik ko'rsatadilar. Toshkentlik havaskorlar tayyorlagan spektaklga Muhammadyorov degan tatar ziyolisi rejissyorlik qila boshlaydi. Lekin tayyorgarlik ishlari sust bo'lib, dramani sahnaga qo'yish cho'zilib

ketadi. Ana shu paytda, 1914 yilning boshlarida Samarqanddan Aliasqar Asqarov Toshkentga kelib, havaskorlar bilan tanishadi va rejissyorlik vazifasi unga topshiriladi. Shu tariqa tayyorgarlik ishlari tez orada nihoyalaniib, 1914 yilning fevral oyida "Padarkush" pyesasini – ozarbayjoncha "Xo‘r-xo‘r" komediyasi bilan birgalikda – sahnaga qo‘yish mo‘ljallanadi. O‘sha yili 27 fevralda Toshkentning Yangi shahar qismida joylashgan "Kolizey" teatrining bir ming yuz kishilik tomoshaxonasida kechki soat yettida Toshkent teatr havaskorlari rasman spektakllar namoyishini boshlaydilar. Shu munosabat bilan chiqarilgan maromnoma – afishadan ma’lum bo‘lishicha, teatr kechasi uch qismdan tashkil topgan edi. Birinchi qism – Mahmudxo‘ja Behbudiyning "Padarkush" pyesasi asosidagi spektakl namoyishi. Ikkinchi qism – ozarbayjon aktyorlaridan Aliasqar Asqarov, Guluzorxonim va M.Shaxbalov ijrosidagi bir pardalik "Xo‘r-xo‘r" kulgu tomoshasi. Uchinchi qism "Milliy o‘qish va jo‘rlar" deb nomlangan bo‘lib, unda sakkizta nomerdan iborat konsert ko‘rsatilishi nazarda tutilgan edi. Konsertda Mulla To‘ychi hofiz, mashhur raqqosa Qurbonxon, Mulla Ahmadjon to‘ra kabi san’atkorlarning qatnashishi, Abdulla Avloniy qalamiga mansub "Turkiston faryodi" va "To‘y" nomli manzumalar jo‘rlikda ijro etilishi ma’lum qilingan edi. Maromnoma so‘ngida kecha uchun mas’ul mudir Abdulla Xo‘ja o‘g‘li, rejissyor AliasqarAsqarov ekani qayd qilingan. Tomosha avvalida sahnaga Munavvar qori Abdurashidxonov chiqib, butun ijodiy jamoani buyuk madaniy hodisa bilan tabriklaydi. Haqiqatan ham, o‘sha kuni butun Turkiston tarixida ilk bor yevropa mezonlariga mos bo‘lgan, ayni paytda milliy tomosha an’analariga asoslangan professional teatr san’atining tamal toshiqo‘yilgan edi.

"Turon" truppasi 1915 yildan boshlab teatr bilan birga shakllana boshlagan o‘zbek dramaturgiyasining yangi namunalarini muntazam sahnalashtirib boradi. Masalan, 1915–1916 yillarda Abdulla Qodiriyning "Baxtsiz kuyov", Hoji Mu‘inning "Mazluma xotun" pyesalari truppa repertuaridan joy oladi va truppa ilk qadamlaridan boshlab yangilikka, hamkorlikka intilib, professional jamoa sifatida shakllanishga, ijodiy o‘rishga, xalqning madaniy-ma’rifiy saviyasini ko‘tarish yo‘lida, o‘ta qiyin bir sharoitda, dadil tashabbuslar ko‘rsatishga harakat qiladi.

"Turon" truppasining negizini tashkil etgan aktyorlar quyidagilar edi: Hasan qori, Eshonxo'ja Xoniy, Sami qori (Abdusame Ziyobov), Abdulla Avloniy, Badriddin A'lamov, Shorahim domla Shohinoyatov, Nizomiddin Xo'jayev, Shokirjon Rahimiy, Qudratulla Maxzum, Muhammadxon Poshshoxo'jayev, Bashrulloxon Xo'jayev, Abdulaziz Xo'jayev, Musaxon Mirzaxonov, Umarqul Anorqulov, Fuzail Jonboyev, Salimxon Tillaxonov, Qudratulla Yunusiy, To'lagan Xo'jamiyrov, Ubaydulla qori Erg'oziyev. Ular safiga 1916 yildan boshlab Sulaymon Xo'jayev, Mannon Uyg'ur, G'ulom Zafariy qo'shilgan. Ba'zi ilmiy manbalarda truppada Abdurahmon Akbarov, Yusuf Aliyev, Sa'dullaxo'ja Tursunxo'jayev, Muso Azizov, Mirmulla Shermuhammedov, Muhiddin Sharafiddinxo'jayev ishlagani haqida hamma'lumotlar uchraydi. Xullas, "Turon" truppasi 1917 yilning suronli hodisalariga qadar salkam o'ttiz kishidan iborat doimiy aktyorlar guruhi, Nizomiddin Xo'jayev, Abdulla Avloniy, Badriddin A'lamov kabi rejissyorlari, ro'yxatga olingan nizomi, milliy va umumbashariy ruhdagi asarlardan tashkil topgan repertuari, Toshkentning Eski shahar qismida o'zining qishki va yozgi sahnasi, aniqmaqsad va vazifalarga ega bo'lgan professional teatr truppasi edi. Yana bir muhim jihati shundaki, u nafaqat Toshkent va O'zbekiston hududida, balki butun O'rta Osiyoda yevropacha teatr madaniyati va an'analarining shakllanishi, rivojlanishi uchun mustahkam asos bo'lib xizmat qildi.

Turkiston o'lkasida 1917 yili bolsheviklarning hokimiyat tepasiga kelishi xalqimiz hayotining barcha yo'nalishlari qatori teatr madaniyati rivoji uchun ham katta tashvish va muammolarni yuzaga keltirdi. Bu voqea endigina paydo bo'la boshlagan milliy o'zbek teatri taraqqiyotini amalda mutlaqo boshqa o'zanga burib yubordi. 1917 yil voqealari arafasida tarqalib ketgan "Turon" truppasining Nizomiddin Xo'jayev, G'ulom Zafariy, Badriddin A'lamov, G'ozil Yunus, Shokirjon Rahimiy va Qayum Ramazon kabi a'zolari Mannon Uyg'ur rahbarligida "Turon" teatrini tiklash, uning ma'rifatparvarlik va taraqqiyparvarlik an'analarini davom ettirishga qaror qilishadi. Ammo yangi voqelik talablariga javob beradigan to'laqonli sahna asarlari hali paydo bo'lmagan edi. Shu sababli "Turon" teatrida 1918 yilning mart oyidan 1919 yilning sentabr oyiga qadar sahnalashtirilgan 16 ta

pyesadan 15 tasini bir pardali asarlar tashkil etadi. Bu asarlar orasida shoir va bastakor G'.Zafariyning "Tilak", "Yomon o'g'il", "Rahimli shogird" singari musiqali pyesalari ham bor edi.

Ular 20-yillarda, bir tomondan, o'zbek bolalar dramaturgiyasi, ikkinchi tomondan esa, milliy musiqali drama teatri shakllanishi uchun poydevor bo'lib xizmat qiladi.

1920 yilning mart oyida Mannon Uyg'ur rahbarlik qilgan Karl Marks truppasi "Taraqqiy" havaskorlar to'garagi bilan birlashganidan so'ng O'lka davlat namuna truppasi yuzaga keladi. Uyg'ur rahbarlik qilgan bu truppa tatar teatr arbobi Kamol Birinchi rejissyor sifatida taklif etiladi. YE.Bobojonov, M.Qoriyeva, O.Jalilov, S.Olimov, M.Muhamedov, A.Ardobus (Ibrohimov), SH.Najmiddinov esa truppaning ijodiy o'zagini tashkil etadi. Truppa 1925 yilda O'zbekistonning o'sha paytdagi poytaxti Samarqandga ko'chib borguniga qadar xalq va mamlakat hayotiga yaqinlashishni, keng xalq ommasini hayajonlantirgan dolzarb hayotiy muammolarga murojaat etishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. 1920 yil 26 martda namoyish qilingan Hamzaning "Zaharli hayot" dramasi, G'.Zafariyning "Halima" musiqali dramasi oz borada muhim ahamiyat kasb etdi. Oradan ikki yil o'tgach, 1924 yil 20 iyunda Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" (Xurshid inssenirovkasi), 15 dekabrda esa Fuzuliyning "Layli va Majnun" (Uzeir Hojibekov inssenirovkasi va musiqasi) dostonlari asosida musiqali spektakllar tayyorlanib, namoyish qilinadi.

1920 yilning bahorida O'lka o'zbek davlat namuna truppasi tashkil etilganidan so'ng unga Toshkentning Yangi shahar qismidagi 600 kishilik "Xalq uyi" binosi beriladi va Abdulhamid Sulaymon o'g'li CHO'lpon teatr direktori etib tayinlanadi. 1914 yildan boshlab dramaturgiyada ham qalam tebrata boshlagan CHO'lpon 20-yillarning avvalida "Yorqinoy" va "Xalil farang" pyesalarini yozadi. "Yorqinoy" 1920 yil 24 noyabrda, "Xalil farang" esa 1921 yil 2 fevralda teatr sahnasida namoyish etiladi. Umuman, teatr faoliyati, uningijodiy kamolatida CHO'lpon alohida o'rin tutadi.

1921–1924 yillarda teatr repertuarida faqat Hamzaning "Iffat qurboni", Fitratning "Abo Muslim", Xurshidning "Farhod va Shirin" asarlari bo'lgani tufayli

tarjima asarlarni ko‘proq sahnalashtirishga to‘g‘ri keladi. Chunonchi, ozarbayjon dramaturgi Husayn Jovidning "Iblis", "Shayx San'on" va "Moral" asarlari shunday asarlar sirasidan edi. 1924 yilning noyabr oyida Mannon Uyg‘urning say-harakati bilan Moskvada O‘zbek drama studiyasi tashkil etiladi. Toshkentdan borgan O‘zbek davlat namuna truppasi a‘zolari studiyada ilk bor teatr san’ati nazariyasi va amaliyoti bilan tanisha boshlaydi. Keyinchalik M.Uyg‘ur, YE.Bobojonov, A.Hidoyatov, Hoji Siddiq, M.Muhamedov singari "namuna"chilar safiga Toshkentdan T.Saidazimova, S.Eshonto‘rayeva, Z.Hidoyatova, Buxorodan L.Narzullayev, H.Latipov, S.Tabibullayev, SH.Qayumov, Qo‘qondan B.Ermamatova, Andijondan I.Karimov va boshqalar kelib qo‘shiladi. Studiyada o‘zbekistonlik tinglovchilarga aktyorlik mahorati, rejissura va boshqa ixtisosliklardan R.Simonov, I.Tolchanov, V.Kansel, O.Basov, L.Sverdlin singari rus teatrining yirik namoyandalari saboq beradi.

Oradan bir yil o‘tgach, 1925 yilda bir guruh san’atkor yoshlar Bokudagi Ozarbayjon davlat teatri texnikumiga o‘qishga yuboriladi. 1927 yil yozida Moskva va Boku studiyalarining tinglovchilari tahsilni tugatib, ona diyorumizga qaytib kelishadi. Bu esa vaqtincha faoliyatini to‘xtatgan O‘lka davlat namuna truppasining qayta tiklanishi va O‘zbek drama truppasining tashkil etilishiga imkon yaratadi.

Mazkur truppa tomonidan 1927 yil 31 oktabrda "Malikai Turondot" spektaklining Vaxtangov teatri an’analari asosida tayyorlangan R.Simonov talqini tomoshabinlarga taqdim etiladi. Oradan bir yil o‘tgach, 1928 yil 30 oktabrda Mannon Uyg‘ur uni yanada takomillashtirgan holda sahnaga qo‘yadi. O‘sha yillarda CHO‘lponning "Yorqinoy", Fitratning "Arslon", V.Yan va CHO‘lponning "Hujum" kabi san’at talablariga birmuncha javob beradigan pyesalari namoyish qilinadi.

2.3. Teatr funksiyasi va uning ilmiy nazariy asoslari

Teatr san’atining bosh funksiyasi san’at vositasida kishilar ruhini oziqlantirish, ma’naviy olamiga ta’sir ko‘rsatish, bir so‘z bilan aytganda tafakkur dunyosida o‘z o‘rniga ega bo‘lishdan iborat. O‘zining barcha tur, yo‘nalish va janrlaridan qat’iy nazar teatr mana shu funksiyani bajarashi lozim. Bugungi kunda mamlakatimizda drama, musiqali drama, opera, balet, operetta teatrlari faoliyat olib boradi. Mazkur turlarning har biri o‘zining mustahqam asoslari, vositalariga ega.

Teatrning eng asosiy ifoda vositasi bu aktyordir. Zero, dramaturg g‘oyasi, rejissyor fikri, rassom fantaziyasini talqin etishda asosiy yuk aktyorga qo‘yiladi. Sahnada spektaklning butkul taqdiri aktyor orqali yetkaziladi va namoyon bo‘ladi.

O‘zbek musiqali dramasida xonanda – aktyorning o‘rni yuzasidan bir qator qarama-qarshi fikrlar paydo bo‘lgan, ular ijodiy amaliyotda ham ba’zi tortishuvlarga sabab bo‘lib, janrni ilmiy-nazariy talqinida chalkashliklarga olib keldi. Zero har qanday musiqali drama asarining mazmunini inson, uning his-tuyg‘u va o‘y-xayollarining murakkab dunyosi tashkil etadi. U sahnada yashaydi, harakat qiladi, voqealarning bevosita ishtirokchisi sifatida, ularga baho beradi. Har bir alohida obrazning, shu bilan birga butun spektaklning badiiy-g‘oyaviy mohiyati insonning boshqa kishilar, atrof-muhit bilan o‘zaro munosabatlarida, to‘qnashuvlarida namoyon bo‘luvchi dinamikasida, xarakterining uzluksiz dialektik rivojlanishida ochib beriladi. Musiqali drama sahnasida bu vazifani qo‘shiqchi-aktyor bajaradi. Shunga ko‘ra spektaklning konsepsiyasini ishlab chiqishda u muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbek musiqali dramasida qo‘shiq janrning va aktyor ijrosining asosiy jihati hisoblanadi. Qo‘shiq sahnaviy jarayonini ifodallasagina dramaturgiyaning ajralmas qismi bo‘ladi. U o‘zining mustaqil san’atligini yo‘qotib, boshqa san’atlar bilan birga dramaturgik yo‘nalishga singib ketadi va yaxlit asar qiyofasini tashkil etadi.

Vokal musiqasi dramaturgiya xususiyatlari, xarakterlar to‘qnashuvi, yechimi, asarning umumiy ohangi bilan belgilanib, obraz yaratuvchi, sahna voqeligini bog‘lanuvchi, uyg‘unlashtiruvchi, umumlashtiruvchi vositalarga xizmat qiladi. Demak, u dramaturgiyaning faol, ta’sirchan ifodaviy-tasviriy kuchi va g‘oyasini idrok etadi, monolog va dialoglarda qahramonlarning hissiyotlarini ochib beradi.

Qo‘shiq musiqali drama asariga jo‘shqinlik, romantik yo‘nalish baxsh etadi. Dramaturgik vazifalarini bajarmagan holda, u sahnaviylik xususiyatini yo‘qotadi va mustaqil vokal nomeriga aylanib qoladi. Qo‘shiqchi-aktyor asar qahramonining ichki dunyosi, fikr-o‘ylari tizimini tashkil etib, shu bilan birga g‘oyaviy va psixologik yukni ham tashiydi. Obraz dramatik san’at, ashula, raqs, sahna harakati kabi o‘zaro uyg‘un bo‘lgan ijro jihatlar zanjiri orqali amalga oshiriladi. Qo‘shiq va

qo‘shiqchi-aktyorning vazifasi ham hech qachon dramaturgik jarayon rivojiga to‘sqinlik qilmaslik, aksincha, to‘qnashuvlarning chuqur ildizlarini ochib berish, obraz ruhiyatiga kirib borishga, xarakter evolyusiyasi mantig‘ini yaratish kabilardan iborat bo‘lmog‘i kerak. Afsuski, musiqali drama amaliyotida vokal musiqasi ko‘pincha qahramonning ruhiy holatini yorituvchi muhabbat, lirik jihat sifatida beriladi. Ko‘p hollarda u sevgi-muhabbat mazmunidagi sahnalardan iborat bo‘ladi.

Kishining voqealarga munosabatini bildiruvchi, uning qalbini ochib beruvchi xonandalik san‘atiga hozirgi paytda ehtiyoj o‘sib bormoqda. K.S.Stanislavskiy va V.I.Nemirovich-Danchenkolarning sahnalashtirgan musiqali asarlari adabiyot va musiqa uyg‘unligiga ijodiy yondashishnigina emas, balki sahna xonandaligi qonunlarini bilishning ham yorqin namunasi hisoblanadi. Taniqli nemis novator rejissyori V.Felzenshteyn «Tuyg‘u va fikrga to‘la tovushgina haqiqatgo‘ydir va aynan shu narsa dramatikdir» deb hisoblaydi.

Hozirgi jahon rejissurasi musiqali sahna asarlari ustida ishlashning turli usul va metodlariga ega. Drama teatri rejissyorlarining opera va musiqali teatr rejissurasi sohasidagi fikrlari diqqatga sazovordir. L.Rotbaum, Eduardo de Filippo, V.Felzenshteynning opera postanovkalari jozibadorligi bilan e‘tiborni tortdi. Ular dramatik sahna qonunlarini musiqali sahnaga olib kirdilar. Buning natijasida ushbu jarayon tarafdorlari tashabbuskorligini kuchaytirib, soha muxoliflar qarshiligini ham oshirib yubordi. Musiqali teatr rejissurasi amaliyoti ham sahna qo‘shiqchiligi masalalarini hal qilishdagi izlanishlari jadal amalga oshayotganligidan dalolat beradi. Lekin bu bilan ham an‘anaviylikdan voz kechishga iloj bo‘lmadi. An‘anaviy opera rejissurasi xonandani mizansahnalardangina xalos qilib qolmay, balki uning san‘atini cheklovchi omillardan, rol psixologiyasiga chuqur kirib borish bilan bog‘liq vazifalardan ham ozod etib, yanada ko‘proq an‘anaviy shaklchilik uslubiga bog‘lab qo‘ydi. Yangi rejissura esa mizansahnalarni sun‘iy faollashtirish yo‘lidan bordi. Ikkala holda ham muammoga bir tomonlama yondashib, teatrning hozirgi yutuqlari kamsitildi, faqat rejissura asosiy maqsadga aylanib qoldi. Mizansahnalardan ketidan quvish, zamonaviy rejissyorlik qonunlarini ochiq qabul qilmaslik natijasida ko‘pincha xonanda aktyorning musiqali spektakl konsepsiyasidagi o‘rni va

ahamiyati, birinchi navbatda musiqa partiturasini, sahna qo‘shiqchiligi mazmuni va estetikasini yaxshi bilishi lozim bo‘lgan rejissuraning roli unutiladi.

Musiqali sahna asarlarini tayyorlash jarayonida paydo bo‘ladigan barcha muammolarga janr tabiatining o‘zi, uning musiqasi, so‘z va ohanglarda ifodalangan hissiyot-u, fikr-g‘oyasi javob berishga ko‘maklashadi. Nega inson ovozi, badiiy qo‘shiqchilik opera janri spetsifikasini tashkil etadi, degan savol tug‘iladi? Gap shundaki, kompozitorlar o‘z dunyoqarashini, orzu-ideallarini, his-tuyg‘ularini, shaxsiy munosabatlarini, qadriyatlarini xonandalik orqali tasvirlashga intiladilar, ular vokal san‘atini olam bilan muloqotda bo‘lishning oliy estetik shakli deb hisoblaydilar. Inson ovozi sahnaviy obraz ibtidosi bo‘lib, harakat xususiyatini idrok etadi. Shu sababli ham hozirgi sahna qo‘shiqchiligining badiiy mezonlaridan biri ma’noli, ifodali ijro bo‘lib, u faqat opera asarininggina emas, operetta, musiqali drama janridagi spektakllarning ham asosini tashkil qiladi.

Sahna obrazining g‘oyaviy va badiiy to‘laqlonligi ijrochining dramatik va vokal mahoratini stilistik yaxlitligiga bog‘liqdir.

O‘zbek musiqali dramasida xonanda-aktyor muammosi o‘zining uzoq, tarixiga ega. Janrning sintetik tabiati dramatik, qo‘shiqchilik va raqs san‘atiga tayangan aktyor ijrochiligida organik sintez sifatida belgilanadi.

Janr shakllanishining dastlabki davrlarida aktyorlarda ijrochilik qobiliyati majmuasigina bo‘lishi ko‘zda tutilgan edi. Ular o‘z tabiiy salohiyati va qobiliyatini namoyon qilgan holda qo‘shiq aytardi, so‘zlardi, obraz yaratardi, raqsga tushardi. Faqat, so‘z va harakatgina emas, balki musiqa ham muhim o‘rin tutgan. «Halima» musiqali dramasidan boshlab ijrochilik vositalarini uyg‘unlashtirish jarayoni boshlandi.

1920 yilda drama truppasi jamoasining yetakchi aktyorlari A.Hidoyatov va M.Qoriyeva hali professional ijro mahoratiga ega bo‘lmay turib, ijodiy vazifalarini o‘z ixtiyorlaridagi vositalar yordamida erishishga urinib ko‘rdilar. Moskva teatr studiyasini tugatgan drama aktrisasi T.Saidazimova yorqin, ifodali ovoz sohibi bo‘lganligi tufayli ijrochilik malakasini yangi bosqichga – professional darajaga

ko'tardi. T.Saidazimovanning san'ati bunday sintez natijasida haqiqiy estetik jihat kasb etdi va o'zbek musiqali dramasi rivojiga katta ulush qo'shdi.

1929 yilda tashkil etilgan O'zbek musiqali teatrida badiiy obrazning musiqa – vokal – raqs uyg'unligi jihatlari izlandi. M.Qoriyoqubov, Tamaraxonimlar qahramonlar xarakteri talqinida xonandalik san'atini ahamiyatini sifat jihatidan yangi pog'onaga ko'tardilar. Milliy-badiiy an'analarini va taraqqiy topgan teatr-musiqa madaniyatlarining ilg'or tajribasini o'zlashtirish natijasida o'sib borgan o'zbek musiqali teatri sahnada ta'sirli, ishonarli, hayotiy to'laqonli obrazlar yaratishni o'zining asosiy maqsadlaridan biri sifatida qabul qildi va galdagi bosqichga qadam qo'ydi. Maxsus vokal sabog'ini olgan xonandalarning, jumladan, B.Mirzayev, H.Nosirova, K.Zokirov sahnada yaratgan obrazlari badiiy-estetik yaxlitlik va teran psixologik talqin bilan ajralib turardi.

1939 yilda O'zbek davlat musiqali teatri jamoasi ikkita guruhga bo'linib, har bittasi mustaqil ijodiy hayotga qadam qo'ydi. Musiqali drama janri Muqimiy nomidagi musiqali drama va komediya teatri yelkasiga yuklandi. Spektaklning markaziy siymosi bo'lib qolgan qo'shiqchi aktyorning o'rni sahnada yanada mustahkamlandi va ushbu muammoga qiziqish yanada ortdi. Musiqali teatrning ijodkorlari janrning boyitish yo'llari, unga o'ziga xoslik baxsh etuvchi va shu bilan birga umumlashma fikrlarni hal qilishga imkon beruvchi yangidan-yangi zamonaviy badiiy vositalar haqida jiddiy hamda chuqur o'ylashlari kerak edi.

Sahnadagi izlanishlar jadal va ko'p qirrali tarzda olib borildi. Shu bilan birga chuqur psixologik, emotsional xususiyatga ega bo'lgan san'atga intilish kuchaydi. Muqimiy nomidagi teatr zamonaviy psixologik izlanishlari ruhida bir qator tarixiy, zamonaviy, afsonaviy mavzudagi asarlarni sahnalashtirdi. Xususan, «Muqimiy», «Nurxon», «Ravshan va Zulhumor», «Oltin ko'l», «Vatan ishq», «Momo yer», «Qonli to'y», «Jonim fido» spektakllari galdagi jarayonni eng yaxshi tamoyillari o'zbek musiqali drama teatri sahnasida o'z ifodasini topayotganini ko'rsatdi. Ushbu spektakllardagi teran psixologizm, romantik ko'tarinkilik, metaforik teatrning jo'shqinligi ularning muvaffaqiyatini ta'minladi, aktyorlik san'atining eng muhim xislatlarini belgilab berdi.

Spektakldagi qo‘shiqning, musiqaning o‘rni bilan bog‘liq ko‘pgina muammolar O‘zbekiston Kompozitorlar uyushmasining plenumida tahlil etilgan. Ana shu muammolarning amaliyotda hal etilishida shu nafaqat teatr jamoasi, balki kompozitorlar ijodi, xonanda-kadrlar tayyorlovchi oliygohlar bilan bog‘liqdir.

Nazorat savollari

1. Teatr nima uchun sintetik san‘at deb ataladi?
2. An‘anaviy teatr tushunchani qanday izohlaysiz?
3. Yevropacha rusumdagi teatrning tarixiy shakllanish davri qaysi mezonlarga bog‘liq bo‘ldi?
4. O‘zbekistondagi qaysi teatr yo‘nalishlari faoliyat yuritadi?
5. Teatr san‘atining funksiyasi, vazifasi, ahamiyati nimalardan iborat?
6. Bugungi ijtimoiy hayotimizda teatr san‘ati o‘z vazifalarini qanday bajarmoqda deb o‘ylaysiz?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Aristotel. Poetika. - Toshkent? 1978 y.
2. Baxtin M.M. Estetika slovesnogo tvorchestva. M., 1979.
3. Veselovskiy A.N. Istoricheskaya poetika. M., 1989.
4. Velflin G. Osnovniye ponyatiya istorii iskusstv. Spb., 1994.
5. Gachev G.D. Soderzhatelnost xudojestvennix form. Epos. Lirik. Teatr. M., 1968.
6. Kogan I. Morfologiya iskusstva. -M.: Iskusstvo, 1972.
7. Zrelishniye iskusstva v sisteme xudojestvennoy kulturi Uzbekistana XX veka. Sbornik statyey. T.1. Nauchniy red. M.Tulyaxodjayeva. -Tashkent: San‘at, 2008.- 239 s.
8. Ismoilov E. Mannon Uyg‘ur.—Toshkent: Adabiyot va san‘at n., 1983.-288 b.
9. Islomov T. Tarix va sahna.—Toshkent:- G‘.G‘ulom nashriyoti, 1998.-136.b.
10. Kaydalova O.N. Traditsii i sovremennost. Teatralnoye iskusstvo Sredney Azii i Kazaxstana. -M.: Iskusstvo,1977. -296 s.
11. Muxtarov I. A. Teatr i klassika. - T.: izd. im. G.Gulyama, 1988. - 176 s.
126. Muxtarov I. A. Teatr i yego aktyori (Tendensii razvitiya uzbekskogo ssenicheskogo iskusstva 50-60 godov. Na materiale teatra im.Xamzi). –Tashkent: Fan, 1989.-146 s.

13. Rahmonov M. O‘zbek teatri tarixi (XVIII asrdan XX asr avvaligacha o‘zbek teatr madaniyatining taraqqiyot yo‘llari). -Toshkent: Fan,1968.-430 b.
14. Rahmonov M. Hamza nomidagi O‘zbek davlat akademik drama teatri tarixi. Birinchi kitob (1914-1960 yillar.)-Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot, 2001.-328 b.
15. Qodirov M. O‘zbek muzikali dramasi.–Toshkent: O‘zkompartiya, 1971.-40b.
16. Qodirov M. O‘zbek teatri tarixi (XVIII-XX asrlar).–Toshkent: Ijod dunyosi, 2003.-240 b.

IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI

IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI

1-amaliy mashg‘ulot. San‘atshunoslikning bugungi holati va dolzarb muammolari. Ta‘lim sifatining ijobiy o‘zgarishiga xizmat qiluvchi omillar. San‘atlarning o‘zaro integratsiyasi.

Ishdan maqsad: San‘atshunoslikning rivojlanish tendensiyalarini aniqlash, ularning vazifalari, nazariyasi va amaliyotining xususiyatlarini tahlil etish. “San‘atshunoslik” tushunchasi va funksiyasini tahliliy o‘rganish.

Masalaning qo‘yilishi: Tinglovchilar tomonidan kichik guruxlarga bo‘linib, ular har bir vazifa bo‘yicha berilgan savollardan javob olish jarayonida og‘zaki tahlil orqali sharhlab berishi lozim.

Ishni bajarish uchun namuna

O‘qituvchi talabalarni 4-guruhga bo‘ladi. Mavzu bo‘yicha tayyorlangan topshiriqlarni tarqatadi. O‘quv natijalari nima berishini aniklashtiradi, erishiladigan natijaning yutuq va kamchiliklarining mohiyatini aytadi. Qanday qo‘shimcha materiallardan foydalanish mumkinligi haqida ma’lumot beradi. (darslik, ma’ruza matni, internet materiallari). Guruhlarda ish boshlash vaqtini e’lon qiladi.

Guruhlardagi hamkorlik ishlarining takdimotini tashkillashtiradi va boshqaradi. Takdimot muddati 20 minutdan oshmasligini e’lon qiladi.

O‘qituvchi har bir savolga yakun yasaydi.

Mashg‘ulotni baholash. Voqeliklarning ketma-ketligi, topshiriqlarni asoslab berish, shuningdek talabalar bilim saviyasini shakllantirishga, tushunchalaridan to‘g‘ri xulosalar chiqarishiga e’tibor qaratadi.

Mavzu bo‘yicha yakunlovchi xulosalar qiladi. Mavzu maqsadiga erishishdagi tinglovchilar faoliyatini tahlil qiladi va baholaydi.

2- amaliy mashg‘ulot. Xorijiy adabiyotlar tahlili, ta‘lim jarayoniga tadbiq etish masalalari. San‘atshunoslik fanlariga innovatsion texnologiyalarning joriy qilinishi.

Ishdan maqsad: Teatr, musiqa, tasviriy san‘at, kino va boshqa zamonaviy san‘atlarning jamiyat ijtimoiy, madaniy-ma’naviy xayoti bilan uzviyligi.

Masalaning qo‘yilishi: Tinglovchilar kichik guruhlarga bo‘linib, har bir guruh “San‘at” so‘zi misolida sinkveyn yechadilar. Guruhlar o‘z mulohazalarini o‘qib eshittirib, og‘zaki tahlil orqali o‘zaro fikr-mulohaza almashadi.

Ishni bajarish uchun namuna

Sinkveyn

- ▶ _____ Ot (sushestvitelnoye ili mestoimeniye)
- ▶ _____ Sifat (prilagatelniye)
- ▶ _____ Fe'l (glagol)
- ▶ _____ Ibora-gap (fraza)
- _____ Sinonim yoki rezyume

Mazkur metod nazariy asosni mustahkamlash, yangi ma'lumotlarni puxta o'zlashtirish maqsadlariga xizmat qiladi. Ushbu metod yordamida talabalarning o'quv materialini o'zlashtirganlik darajasini aniqlash, mavzu doirasida ko'nikma va malakalarini nazorat qilish hamda baholash imkoniyati kengayadi.

3- amaliy mashg'ulot. San'atshunoslik ilmiy tadqiqotlarining yetakchi jihatlari. O'zbekiston san'atshunosligining zamonaviy muammolari tahlili.

Ishdan maqsad: San'atshunoslik fanining respublikadagi holati jahon tajribasi bilan muqoyasa qilish asosida o'rganish va baholashdan iborat.

Masalaning qo'yilishi: tinglovchilar san'atshunoslikning ta'lim tizimidagi o'rni bevosita malakatimizda olib borilayotgan ma'naviy-ma'rifiy islohotlarning amalga oshirilishi bilan bog'liq holda belgilanishi bo'yicha amaliy ko'nikmalarini namoyish etadilar.

Ishni bajarish uchun namuna

Sohaning SWOT tahlili. Globallashuv jarayonida ijtimoiy-madaniy hayotdagi o'zgarishlar tendensiyasi va istiqbolli rejasini tadbiq etish. Tinglovchilar guruhlariga bo'linib, "O'zbekiston san'atshunoslik yo'nalishining bugungi holati" mavzusida SWOT tahlilni amalga oshiradilar. Guruhlar o'z chiqishlarida har bir punkt bo'yicha bildirilgan fikrlarni tahliliy asoslab, ilmiy basharotlarini ifoda etadilar. Guruhlarning muammoni aniq ko'rsatishi va kelajakni bashorat qilishdagi tahliliy yondoshuvlari boshqa guruhlar tomonidan baholanadi.



Ushbu metodning ta'lim jarayonida qo'llanishi muammoni turli rakurslarda ko'rish, uning yechimiga doir atroflicha izlanishlar olib borish ko'nikmasini shakllantiradi. Natijada talabada mustaqil fikrini bildirish, o'z qarashlarini himoya qilish va eng muhimi tanqidiy tafakkurini rivojlantirish imkoniyati paydo bo'ladi. Bundan tashqari mazkur metod talabani jamoada ishlash ko'nikmasini rivojlantirib, guruhda liderlarning kashf qilish, passivlikdan aktivlikka olib chiqish maqsadlarini rag'batlantiradi.

**V. KO'CHMA MASHG'ULOT
MATERIALLARI**

1-ko'chma mashg'ulot: San'at ta'limida iqtidor tushunchasining mohiyati. San'atshunoslik fanini o'qitishning maqsad va vazifalar. Integratsion o'qish tajribalari. (4 soat)

San'at ta'limida iqtidor tushunchasining mohiyati. San'atshunoslik fanini o'qitishning maqsad va vazifalar. Integratsion o'qish tajribalari. Tinglovchilar guruhi bilan Toshkent shahrida joylashgan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi San'atshunoslik instituti va O'zbekiston davlat san'at muzeylardan biriga tashrif buyuriladi. Teatrning ishlash kundaligi, repetitsiyalar jarayoni, ishlab chiqarish faoliyati bilan tanishiladi. Darsdan so'ng muayyan spektakllar tahlil qilinadi va teatrning o'ziga xosligi borasida fikr almashinadi.

San'at – insoniyat badiiy falsafiy tafakkurining mevasidir. Shu bois unga bo'lgan inson ehtiyoji aslo so'nmaydi. Insoniyat madaniy taraqqiyoti zamondan zamonga qarab o'sib, rivojlanib borar ekan, san'atga bo'lgan ehtiyoj ham shunga monand muttasil o'sib boradi. Zamon taqozosi va talabi sifatida yangi turlar, yangi janrlar paydo bo'laveradi. San'atkor badiiy tafakkuriga, ijro mahoratiga, san'atning badiiy-falsafiy, ijtimoiy-tarbiyaviy asoslariga bo'lgan talablar ham muttasil o'sib boraveradi. Ikkinchidan, san'at muxlislarining, demakki, keng xalq ommasining san'atdan badiiy-estetik zavq olishga intilishi asnosida uning san'at turlari xususiyatlarini anglashga, san'atkorlar hayoti, ijodi, mahoratlarining o'ziga xos tomonlarini, imkoniyat darajalarini, san'atlar taraqqiyoti jarayonlaridagi yutuqli va muammoli tomonlarini bilishga intilishi azaldan yuksak darajada bo'lgan. Shu bois, bugungi axborot-kommunikativ imkoniyatlar oshgan, globallashuv jadallashgan bir sharoitda bu masala yanada o'tkirlashib ham badiiy-ijtimoiy, ham ijtimoiy-iqtisodiy dolzarblik ko'rsatmoqda. Har ikkala jarayonning garmonik tarzda borishi va rivojlanishini ta'minlashda juda ko'p omillar qatori san'atshunoslikning o'rni ham eng muhim shartlardan biri bo'lib kelmoqda.

Bugungi kunda ayrim tadqiqotchilar san'at o'z mahsuliga ega bo'lganligi sababli uni ishlab chiqarish tarmog'iga qo'shadilar. Boshqalarning fikricha esa san'at mahsuli estetik ramzga ega va madaniy jihatdan estetik ehtiyojni qondirishga qaratilmagan boshqa mahsulotlardan ajralib turadi. Lekin ikkala turdagi mahsulot qandaydir ma'lum bir axborot tashuvchisi hisoblanadi va qay biri aynan san'atga tegishli ekanligini aniqlash ba'zi bir xollarda qiyin bo'ladi. Baumolning fikricha, kolleksioner masalan san'at predmetini xarid qilishidan estetik zavq olishi bilan birga moliyaviy daromadni ham ko'zlaydi. Xonig esa rangtasvir asarini moddiy madaniyatning tugallangan predmeti (artefakt), tasviriy mahsul va iste'mol predmeti sifatida tavsiflagan.

Barrere va Santagata (1999) haykaltarosh Konstantin Brankusining san'atga tegishli va san'atga tegishli emasligini qanchalik murakkab ekanligini namoyish

qilish maqsadida 1927 yili Nyu Yorkdagi Bojxona boshqarmasiga qarshi bo‘lgan sud ishini misol tariqasida keltiradilar. Uning Nyu York portiga olib kirilgan “Fazodagi qush” nomli haykalini qanday tovarlar guruxiga kiritish qiyinchilik tug‘dirdi, chunki 1913 yildan buyon AQShga kelgan san’atga tegishli barcha tovarlar bojxona to‘lovlaridan ozod etilgan edi. Lekin ko‘pchilik haykalni ishlab chiqarishga xosligi va undan import boji undirilishi kerakligini bahslashishadi. Brankusi bu ishni yutib chiqdi, lekin hanuzgacha san’at mahsulini aniqlashda ko‘plab bahslar olib borilmoqda. Ushbu vaqtda aniqlangan omillarga san’at ishining originalligi va haqqoniyligi, u qo‘lda yasalgan va yasalmaganligi, uning amaliy qiymati va iste’mol ko‘rsatkichlari kiritildi. Hozirda ko‘plab san’at ishlarini uning originalidan farqlash mushkul. Ammo sanoat prototiplar original hisoblansa ham ular san’at asarlari emasligicha qolaveradi. San’atning chegarasi cheksiz va zamonaviy san’at vaqt bilan chegaralangan, hamda ommaviy ishlab chiqarish omillarini o‘ziga jalb etadi. Jismoniy originallik o‘rnini tez tez yangi g‘oyalar egallaydi. San’atshunoslikning o‘ziga xos qirralari, rivojlanish tendensiyalari uning subyekt va obyektlaridagi o‘zgarishlarda namoyon bo‘ladi. Subyektlariga san’at mahsuli yaratuvchilari, vositachilar va iste’molchilar kirsam, obyektlarini esa san’at mahsuli, tashkilotlar, shaxslar tashkil etadi. San’atshunos esa bu borada o‘ziga xos vositachi, asl san’at va sanoat mahsulining qiymatini belgilovchi mutaxassisdir.

VI. KEYSLAR BANKI

VI. KEYSLAR BANKI

Keys №1. “Tunda ochiq”

San’at ommabopligini yanada oshirish tufayli ushbu sohadagi qo‘shimcha qiymatning kapitalga aylanish jarayoni Teyt Modern galereyasi uchun muvaffaqiyatli o‘tdi. Mazkur kompaniyani 2002 yil mart va may oylarida Londonning 8ta galereyasidan iborat birlashma o‘tkazdi. Galereyalar kompaniyada o‘zlariga xos vazifalarni belgilagan bo‘lsalar ham, lekin barchalari quyidagi maqsadlarga o‘z diqqat e’tiborini qaratdilar:

- tungi soatlarning uzaytirilganligi xaqida ko‘proq tashrif buyuruvchilarni xabardor etish;

- kechki soat 6 dan keyin tashrif buyuruvchilar sonini oshirish; - galereyalar xaqidagi “zerikarli va jonga tekkan joy” degan tassavurni o‘zgartirib, galereyalar - ijtimoiy xayotning bir qismi sifatida kabi konsepsiyani taklif etish;

- tashrif buyuruvchilar zavq oladigan alohida bir tadbirlar, ma’ruzalar, safar, jonli ijro, restoran, bar va xaridlar kabi faoliyatlar doirasini OAVda yoritib borish.

Ba’zi bir galereyalar, xususan V&A galereyasi tungi soatlargacha ikki yil mobaynida ishlab kelgan va 1500 -2000 ga yaqin tungi tashrif buyuruvchilarni jalb etgan. Boshqalari esa, masalan Milliy Portret Galereyasi xaftasiga ikki tun ochiq bo‘lib, bir yil mobaynida ishlagan edi, unga 300-400ga yaqin odam kechqurun tashrif buyurgan. Dalvik Tasvir Galereyasi o‘z tajribasida tungi tashriflarni hech qachon qo‘llamagan va bunday imkoniyatdan foydalanish istagini bildirdi. Kampaniya uchun maqsadli gurux etib 25-34 yoshli san’atdan xabardor yoki mutaxasis, Londonda yashaydigan yoki ishlaydiganlar tanlab olindi. Ushbu segmentni jalb etish uchun “San’atni sevasanmi?

Undan zavq ol....Kechroq.” shior ishlab chiqildi.

Ushbu shior reklama brendi sifatida yurakcha shakldagi shirinliklarga biriktirildi.

Har bir galereya xaqida ma’lumot, uning joriy ko‘rgazmalari va kech tungacha ochiqligini yoritgan 190000ta risola nashr etildi. 66000tasi London va Vest Endga distribyuter agentligi tomonidan tarqatildi.

Qatnashuvchi galereyalar har biri 8000tasini tarqatdi, qolgani esa *Time Out* jurnaliga ilova qilindi.

Jurnal o'quvchilari maqsadli auditoriyaga yoshi, hayot tarzi kabi ko'rsatkichlari bilan to'g'ri keldi. Ushbu xarakterlar orqali 89%ga o'sish kuzatildi.

Risolada galereyalarda ochilgan tungi barlar xaqida tafsilotlar, xususan Absolut vodka homiyligidagi Love Art arog'idan kokteyli bepul taklif etilishi berildi. Absolut brendi tanlangan tashrif buyuruvchilar auditoriyasiga to'liq mos keladi. Bundan tashqari *Time Out* har hafta tungi barlarni reklama qilib, gazetxonlarga maxsus chegirmalarni taklif etib bordi.

Kampaniya xarajatlari qatnashchilar o'rtasida taqsimlanib, 1400 funt sterlingga teng bo'ldi. Asosiy xarajatlarni risolalarni chop etish va tarqatish tashkil qildi. *Time Out* gazetasi homiyligida 21000, Absolut brendi tomonidan esa 8000 funt sterlingdagi xarajatlar qoplandi. Xeyuard Galereyasida ochilgan birinchi tungi bar birinchi tundayoq o'rtacha sondan ancha ko'p bo'lgan tashrif buyuruvchilar -300tasini jalb etdi. Milliy Portret Galereyasiga esa 800ga yaqin mijoz keldi. Xattoki eng past reytingda bo'lgan Dalvik Tasvir Galereyasiga 200ta odam keldi. Kampaniya tugaganidan so'ng natija ko'plab galereyalarga shunday saqlanib qoldi. Masalan Milliy Portret Galereyasiga tashrif buyuruvchilarning soni o'sib bordi va hozirda tungi tashrif 1000 dan ortiq bo'lib turibdi. *Manbaa: Marlow, 2001.*

Savollar

1. San'at muassasalarining birgalikdagi xarakterida qanday afzalliklar va kamchiliklar bo'lishi mumkin?
2. Galereyalar reklama kampaniyasini o'tkazishda qanday ma'lumotlarga ega bo'ldilar? Ushbu ma'lumotlardan potensial mijozlar bilan uzoq muddatli munosabatlarni o'rnatishda qanday foydalanish mumkin?
3. Sizing fikringizcha, ushbu kampaniya tashrif buyuruvchilarni san'atga emas balki bepul ichimlikka jalb etishga aylanib qolish xavfi qay darajada? Ushbu xavfni cheklash uchun nima qilish mumkin?

Keys №2. "Xall Trak" teatri tomoshibanlari

Tadqiqotlar oxirigi 2 yil mobaynida Xall shahrining teatrga boruvchi aholisidan faqatgina yarmi Xall Trak teatrida bo'lganligini ko'rsatdi. Bunga qaraganda 10tadan 9tasi shahar markazida joylashgan dasturi turli tumanligi bilan ajralib turadigan Xall Nyu Teatriga borishi aniqlandi. Yilda teatrga uch va undan ortiq marta borgan tashrif buyuruvchilarning soni chorakdan ko'prog'ini tashkil etdi, ularning orasida

hech qaysi Xall Trak teatrida bo‘lmagan. Tomoshabinlarning uchdan bir qismi “yuksak” san’at shakllaridagi zamonaviy dramalarni ko‘rishni xush ko‘rishar ekan va ular orasida Xall Trak teatriga borganlar aniqlanmadi.

Xall Trakning taxlil etilgan joriy tomoshabinlari teatr tashabbuskorlari, doimiy va turli teatrlarga boruvchilar deb topildi. Ular teatrni asosan kechqurun borishga yaxshi joy deb, teatrga borish uydan tashqarida ovqatlanishga borish safari sifatida qabul qilishar ekan. Ularning yoshi 25-44 yoshda.

Bunga qiyosan, yangi potensial tomoshabinlar (teatrga boruvchi lekin Xall Trakka bormaganlar) xaqiqatdan teatrga qiziquvchilar bo‘lmagan. Ular yangilikni izlaydigan va tajriba sifatida qabul qiladigan insonlar toifasidan.

Tashrif buyurishga ta’sir etish. Tadqiqot so‘rovnomasi ishtokchilari bo‘yicha Xall Trak teatriga borish uchun qanday omillarga bog‘liqligi aniqlandi. Teatrga boruvchilarning yarmi shahar markazidagi yangi bino o‘ziga jalb etishini ta’kidladilar. Tanaffusda tomoshabinlar dam oladigan xona yoki zal, bar kafelarnig mavjudligi yoshroq tomoshobinlarni jalb etishi mumkin. Jon Godber John Godber badiiy direktorining mahsuloti ko‘pchilikka yoqishi e’tirof etildi. Lekin ko‘rsatuvlarning yangi shakllarini taklif etish tavsiya etildi.

Marketing natijalari. Xall Trak teatri marketing kommunikatsiyasidagi kamchilik potensial bozorni chuqurroq o‘rganilmaganligi kuzatildi. Teatr tomoshobinlari teatr dasturlaridan teatr tomonidan yuborilgan xatlar, tez tez tashrif buyuruvchilardan xabardor bo‘lib turishar ekan. Ayrimlari maxalliy gazetalarda berilgan ma’lumotlar bilan qiziqib turar ekanlar. Yoshlar esa asosan internetdan.

Savollar

1. Xall Trak teatri o‘z missiyasini oshirishda qanday maqsad va vazifalarni belgilashini taklif qila olasiz.
2. Ushbu maqsad va vazifalarni amalga oshirishda qanday strategiyalarni ishlab chiqasiz. Ushbu strategiyalarni tadbiq etish uchun marketing taktikasini ishlab chiqing.
3. Ushbu rejalarni ishlab chiqishda ma’lumotlar ro‘yxatini tuzing. Agarda Siz Teatr marketing menejeri bo‘lsangiz ushbu ma’lumotlar yetarlicha bo‘larmidi?

Keys №3. Opera hamkorligi

Sidney Opera Xaus butun dunyoda mashxur bo‘lgan zamonaviy arxitektura dizaynidagi binolardan birida joylashgan. Opera Xaus

tashkiliy rivojlanish innovatori sifatida uning ijrochi direktori Maykl Link to'rt yillik boshqaruvi ostida shakllandi.

Link Avstraliya Kengashidagi teatr menejmentida milliy san'atni qo'llab quvvatlovchi innovatsion shaxs sifatida e'tirof etilib 1998 yilda Avstraliya tasviriy instiutini boshqaruvini oldi. Uning boshqaruv faoliyati Opera Xaus uchun ikki muhim tarixiy voqealar – Yangi yil va 2000 yil Sidney Olimpiadasiga to'g'ri keldi. Bunday hodisalar tashkilot uchun ish jarayonining yangi yondashuvlarini talab etardi va Link Operani “o'rganuvchi tashkilot” ga aylantirishga axd qildi. Ushbu atama amerikalik menejment namoyandasi Piter Senj (Peter Senge) tomonidan 1990 yilda “Beshinchi Fan” kitobida yoritilgan bo'lib, unga binoan tashkilot insonlar kabi tizimli ravishda rivojlanishi va tajriba almashishlari lozim. Albatta uning afzalligi bir butunligida, o'rganib borish esa tashkilot muhim faoliyatlaridan biri sifatida tashkiliy quvvatni oshirishda katta kuchdir. Boshqacha qilib ta'kidlanganda esa, “uning a'zolari jamoaviy xabardorlik va unumdorlikni kuchaytirish va qo'llab quvvatlashga doimiy diqqat e'tiborini qaratib turadilar” (Senge *et al.*, 1994).

Opera Xausda muvaffaqiyatga erishish yo'li barcha xodimlarni ushbu yo'nalishga qo'yish deb belgilandi.

Link buni quyidagicha izohladi: “Opera Xausda ishlar qanday bajarilishiga butun shtatni jalb etish yondashuvini biz qabul qildik. Natija –bu ish joyi bo'lib, bu yerda tashkilot rivoji uchun har bir xodim o'z xissasini qo'shish uchun vakolat olgan. Bu shaxsning o'sishi uchun ko'maklovchi ish joyi bo'lib, bunda innovatsiyalar, mahoratni ko'rsatish, “buni qila olaman” degan xatti xarakter tan olinadi va rag'batlantiriladi”. Ushbu jarayoning bosh g'oyasi turli sohalarni qamrab oluvchi loyiha guruxining tashkil topishi bo'lib, unga tajribasi va funksional asosi har xil bo'lgan xamkasabalar kiritildi.

Ularning vazifasi muassasaning 2000 yilga tayyor bo'lishi, ya'ni kompyuterga muvofiqlik va tovar va xizmatlarga yangi soliqlar bilan tanishish. Shu bilan birga madaniy o'zgarishlarga bo'lgan zarurat masalasi muassasaning turli bo'limlari va pog'onalari tomonidan o'rta qo'yildi. Konsepsiya Komandasi deb nom olgan ushbu ishchi gurux e'tiborini muassasaning o'zini hamda bu yerdagi har bir shaxsni takomillashtirishga qaratdi.

VII. GLOSSARIY

VI. GLOSSARIY

Ingliz tilidagi	Termin	O'zbek tilidagi
Theatre	Teatr	Teatr – (yun. so‘z bo‘lib, tomoshagoh degan ma‘noni anglatadi). San‘at turi; uning o‘ziga xos ifoda vositasi aktyorning omma oldidagi o‘yinjarayonida yuzaga keladigan sahnaviy voqeadir. Teatr san‘atida ham boshqa san‘atlarda bo‘lganidek, xalq hayoti, tarixi, dunyoqarashi aks etib, jamiyat taraqqiyoti, ma‘naviyati, madaniyati bilan bog‘liq holda o‘zgarib, takomillashib boradi. Teatr asosida og‘zaki yoki yozma dramaturgiya yotadi. Teatr sintetik san‘at bo‘lib, jamiyat hayotida, tomoshabinlarning ma‘naviy-estetik tarbiyasida muhim o‘rin tutadi. Unda dramaturgiya, musiqa, tasviriy san‘at, raqs, memorlik ajralmas birlikni tashkil etadi. Teatr – san‘atning muhim bir xili bo‘lib, u qadimgi Gretsiyada tug‘ildi.
Decoration	Teatr dekoratsiyasi san‘ati	ssenografiya– tasviriy san‘atning teatr san‘ati bilan bog‘liq sohasi; dekoratsiya, liboslar yorug‘lik, sahna texnikasi vositasida spektaklning tomosha obrazi (ko‘rinishi)ni yaratish san‘ati.
Music	Teatr musiqasi	1. keng ma‘noda - barcha musiqali (opera, balet, operetta, musiqali drama, musiqali komediya, vodevil, myuzikl va b.) hamda dramatik spektakllar uchun yozilgan musiqa. 2. tor ma‘noda – dramatik teatr spektakl (drama, komediya, tragediya)lari musiqasi
Theatre Science	Teatrshunoslik	teatr tarixi va nazariyasini o‘rganuvchi fan. Mustaqil ilmiy yo‘nalish sifatida teatr san‘atining umumiy taraqqiyoti bilan bog‘liq holda XX asrda shakllangan. Teatrshunoslik dastlab, asosan drama teatrlari faoliyati bilan bog‘langan bo‘lsa, keyinchalik opera va balet, operetta, musiqali drama, bolalar teatri, qo‘g‘irchoq teatri, teatr ta‘limi, sahna nutqi, dekoratsiya san‘ati, teatr libosi va pardozi, sahna harakati, havaskorlik teatri sohalari va yo‘nalishlarini o‘z ichiga oladi.
Subject	Syujet	– (fr. va lot. so‘z bo‘lib, predmet, mazmun, mohiyat, narsa degan ma‘nolarni anglatadi). 1. Badiiy asarda, filmda voqea-hodisalar tasviri, bayonidagi izchillik va o‘zaro aloqa; badiiy asar mazmuni. 2. Tasviriy san‘atda: tasvir obyekti, predmeti.

		Syujet –badiiy asar mazmunini tashkil etadigan, bir-biri bilan o‘zaro bog‘liqlikda kechadigan, qahramonlar o‘rtasidagi aloqalardan tarkib topgan voqealar tizimi.
Acting technique	Aktyorlik san’at	san’at yaratish sasna qiyofalarni (rollarni) teatrdan tomoshalarning taqdimotchilari
Atmosphere	Atmosfera	hayajonli bo; yash har kimning harakatlari, sahnaning, epizoda, bog‘liq bo‘lgan tavsiya etilayotgan holatlar, voqealardagi tugun, nizoni, tempo-ritma, " donlar ", bog‘liqligi harakati va faoliyat yurituvchi shaxslarda uni fe‘l-atvorini, yordam beradi.
Proscenium	Avanssena— sahna	dahliz bir bo‘lak sahnaning, bir qancha namoyish etilgan tomosha zali. (Rampa). sifatida o;yin uchun belgilangan maydoncha sahna oldi keng foydalanildi oper va balet spektakl dramatik teatrlarda sahna oldi xizmat qiladi. Asosan joy harakatlari uchun katta bo‘lmagan sahnalar oldidagi yopiq parda.
Type, theatrical character	Amplua— o‘xshash	fe‘liga ko‘ra rolini, tegishli ma‘lum aktyora (aktrissalar) tomonidan bajariladigan rollarning tipi.
Atellana	Atellana-atellana	(qadimgi rim xalq tomoshasi;oddiy xalq hayotini tasvirlovchi qisqa sahna asari)
Annotation	Annotatsiya-annotatsiya	(qisqa qaydlar, kitobning qisqacha mazmuni)
Ballad	Ballada-	(lirik-epik poeziyaning bir turi)
Ballet	Balet-balet	(teatr san’ati turlaridan biri); raqsga asoslangan muzikali-dramatik sahna asari)
Properties	Butaforiya— sahnadagi	yasama jihozlar qalbaki fanlar (haykaltaryoshlik, mebel, idish, bezaklar va boshqalar. Asar voqealarini ochishga yordam beruvchi narsalarni.
Buffoon	Buffonada	kulgili teatr tomoshasi qabul qilish, foydalanilayotgan teatrdan; asosan tashqaridan qaraganda komik bo‘rttirib yuborish, ba’zida tartibli harakatlarni, ko‘rinishlari

VIII. ADABIYOTLAR RO'YXATI

VIII. ADABIYOTLAR RUYXATI

I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoyev SH.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoyev SH.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: “O‘zbekiston”, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoyev SH.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoyev SH.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2020. – 400 b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

6. O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2018.
7. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonuni.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyun “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4732-sonli Farmoni.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 4947-sonli Farmoni.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 aprel "Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli Qarori.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 28 avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasida madaniyat va san’at sohasini innovatsion rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-3920-son Qarori.
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 dekabrda “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish to‘g‘risidagi PQ-4068-son Qarori.
13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 4 fevraldagi “Milliy raqs san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-4584-son Qarori.
14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentabr “2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5544-sonli Farmoni.
15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 may “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5729-son Farmoni.
16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgust “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli [Farmoni](#).
17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabr “O‘zbekiston

Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli [Farmoni](#).

18. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 oktabr "Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6097-sonli [Farmoni](#).

19. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 25 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.

20. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabr "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 797-sonli Qarori.

SH. Maxsus adabiyotlar

21. Asekretov O.K., Borisov B.A., Bugakova N.Y. i dr. Sovremenniy obrazovatelniye texnologii: pedagogika i psixologiya: monografiya. – Novosibirsk: Izdatelstvo SRNS, 2015. – 318 s.

<http://science.vvsu.ru/files/5040BC65-273B-44BB-98C4-CB5092BE4460.pdf>.

22. Avdeyva L. O'zbek milliy raqsi tarixidan. - T.: Mukarrama Turgunboeva nomidagi "O'zbek raqs" milliy raqs birlashmasi, 2001.- 204b.

23. Belogurov A.Y. Modernizatsiya protsessi podgotovki pedagoga v kontekste innovatsionnogo razvitiya obshestva: Monografiya. — M.: MAKS Press, 2016. — 116 s. ISBN 978-5-317-05412-0.

24. Gulobod Qudratulloh qizi, R.Ishmuhammedov, M.Normuhammedova. An'anaviy va noan'anaviy ta'lim. – Samarqand: "Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi" nashriyoti, 2019. 312 b.

25. Ibraymov A.YE. Masofaviy o'qitishning didaktik tizimi. metodik qo'llanma/tuzuvchi. A.YE. Ibraymov. – Toshkent: "Lesson press", 2020. 112 b.

26. Ishmuhammedov R.J., M.Mirsoliyeva. O'quv jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalari. – T.: «Fan va texnologiya», 2014. 60 b.

27. Qodirov M. Tomosha san'ati o'tmishidan lavhalar. – T: Fan, 1993. – 205-b.

28. Qodirov M. Temur va temuriylar davrida tomosha san'atlari. – T: G'.G'ulom nom. nashriyot, 1996. – 64-b.

29. Qodirov M. "Tomosha san'atlari o'tmishda va bugun" - T: "Mumtoz so'z", 2011. - 528 b.

30. Muslimov N.A va boshqalar. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. O'quv-metodik qo'llanma. – T.: "Sano-standart", 2015. – 208 b.

31. Obrazovaniye v sifrovuyu epoxu: monografiya / N. Y. Ignatova ; M-vo obrazovaniya i nauki RF ; – Nijniy Tagil: NTI (filial) UrFU, 2017. – 128 s. http://elar.urfu.ru/bitstream/10995/54216/1/978-5-9544-0083-0_2017.pdf.

32. Oliy ta'lim tizimini raqamli avlodga moslashtirish konsepsiyasi. Yevropa Ittifoqi Erasmus+ dasturining ko'magida. https://hiedtec.ecs.uni-ruse.bg/pimages/34/3_UZBEKISTAN-CONCEPT-UZ.pdf.

33. Sayfullayev B. Tomosha san'ati tarixi va nazariyasi. – T: «Fan va texnologiya», 2014. - 152 b.

34. Usmonov B.SH., Habibullayev R.A. Oliy o‘quv yurtlarida o‘quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish. O‘quv qo‘llanma. T.: “Tafakkur” nashriyoti, 2020 y. 120 bet.
35. Chaplin Charlz Spenser. O sebe i svoym tvorchestve. M.: Iskustvo. T. 1 - 1990.350 s.
36. Fayziyev X. Ovozsiz kinematografdagi operatorlik san’ati tarixidan. T., 2008. – 180 b.
37. Freylix Teoriya kino: ot Eyzenshteyna do Tarkovskogo. M.: Iskustvo, TPO-1992, “Istoki”, -351 s.
38. O‘zbekiston tarixi va madaniyati. SH.Karimov va boshq. Toshkent: 1992,O‘qituvchi, - 294 b.
39. O‘ngboyeva B.O‘. O‘zbekistonda 1920-1956 yillarda kino va teatr san’ati tarixi. Diss avtoreferati. –T., 2018. –55 b.
40. Yurenev R. Kratkaya istoriya kinoiskusstva. - M.:Akademiya, 2000.- 288
41. Andrew Paquette. An Introduction to Computer Graphics for Artists.- Springer Publishing Company, Incorporated, USA 2013.
42. Agel H. L'espace cinématographique. Paris, ed. J.-P.Delarge-ed. Universitaires, 1978,219 p.
43. Basic Text of the Convention for the Safeguarding of the Intangible Cultural Heritage, UNESCO, Paris, 2014 y.
44. Benjamin Grosbayne. “Techniques of modern Orchestral Conducting”. Harvard University Press. USA, 2011 y.
45. David Spencer “Gateway”, Students book, Macmillan 2012.
46. English for Specific Purposes. All Oxford editions. 2010, 204.
47. Lindsay Clandfield and Kate Pickering “Global”, B2, Macmillan. 2013. 175.
48. Mitchell. H.Q. , Marileni Malkogianni “PIONEER”, B1, B2, MM Publiciations. 2015. 191.
49. Mitchell. H.Q. “Traveller” B1, B2, MM Publiciations. 2015. 183.
50. Raymond Bisdorff, LuisC. Dias, Patrick Meyer, Vincent Mousseau, Marc, Pirlot. Evaluation and Decision Models with Multiple Criteria.- Springer-Verlag Berlin Heidelberg. - Germany, 2015 y.
51. Steve Taylor “Destination” Vocabulary and grammar”, Macmillan 2010.
52. Sibsan. “The modern conductor”. Pearson Prentice Hall. Angliya, 2004.

IV. Internet saytlar

53. <http://edu.uz>
54. <http://lex.uz>
55. <http://bimm.uz>
56. <http://ziyonet.uz> –
57. <http://www.dsmi.uz>.
58. <http://www.kino-teatr.ru>

59. <http://www.artsait.ru>
60. <http://belcanto.ru/>
61. <http://music.edu.ru/catalog>
62. <http://artyx.ru/>